

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

“FILOLOGIYA” FAKULTETI 4-BOSQICH TALABASI

HAMIDULLAYEVA MAHLIYONING

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**MAVZU: ALISHER NAVOIY SHE‘RIYATIDA “KO‘Z”
TIMSOLI TALQINI**

Ilmiy rahbar: f.f.n. G.Yo.Xoliqulova

SAMARQAND– 2014

Alisher Navoiy she'riyatida "ko`z" timsoli talqini

Reja:

Kirish

- mavzuning dolzarbligi;
- o`rganilish darajasi;
- o`rganilish manbalari;
- ilmiy ahamiyati;
- maqsad va vazifalari;
- tuzulishi va tarkibi.

I BOB. "Ko`z" timsoli va uning Navoiygacha bo`lgan turkiy she'riyatdagi talqini

1.1 "Ko`z" timsolining badiiyati.

1.2 Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy she'riyatida "ko`z" timsoli tasviri.

II BOB. Alisher Navoiy she'riyatida "ko`z" timsoli

2.1 Tahlil va talqin.

- tasavvufiy ma`noda;
- diniy ma`noda;

2.2 "Ko`z" timsolining boshqa timsollar bilan qo`llangandagi badiiyati.

2.3 Ko`z timsolining fe'l va ot so`z turkumida qo`llanilish darajasi.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Adabiy merosimiz sermazmun va badiiy rang - barangligi bilan asrlar davomida o'z badiiy qadr - qimmatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, mana shu adabiy merosimiz namunalari mutaxassislar tomonidan imkoniyat darajasida o'rganilmoqda. Zotan, tarix – xalq ma'naviyatining asosidir.¹

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, har bir sohaga shu jumladan, adabiyotga ham alohida e'tabor qaratildi. Shu aytgan fikrlarimizning dalili sifatida yurtboshimiz I.A.Karimovning “Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib yetishga suyanadigan qudratli kuchga aylanadi”, - deya ta'kidlagan fikrlarini aytishimiz mumkin.²

Mumtoz adabiy me'rosimizni, adabiyotshunos olimlar ta'kidlaganidek, davrdan uzoqlashganligimiz sari uni tushunish murakkablashadi. Shu bois tarixdan uzoqlashmagan holda insonni tarbiyalab borish haqida yurtboshimizning quyidagi fikrlarini bayon qilmoqchimiz: Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqorolik ongini shakllantirmoqda. Shuningdek, axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.³

Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham adabiyotshunoslik tarixi bilan bog'langan holda olib borilmoqda. Jumladan, Navoiy ijodidagi timsollar o'rganilganidan bir muncha xabarimiz bor. Shu nuqtai - nazardan yana bir bora qayta ko'riladigan bo'lsa ular orasidagi mutanosiblik va yakdillika xulosa yasalgan bo'lar edi. Shu bois shoir lirikasida “ko'z” timsoli orqali turlicha fikr, g'oyalarning mushtaraklik tomonini o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

¹ Каримов И.Адолатли жамият сари. – Т.: Ўзбекистон.1998-й, 53бет.

² Каримов И. Истиқлол ва маънавият. Т.: Ўзбекистон. 1994-й, 22-бет.

³ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Т.: Ўзбекистон. 1977-й, 140-бет.

**Mavzuning o`rganilish darajasi:** Hozirda ming yillik o`z tarixiga ega adabiy merosimizning noyob durdonalari adabiyotshunos olim va olimalar tomonidan dolzarb masala sifatida o`rganib kelinmoqda.

Adabiyotshunoslardan M.Shayxzoda, Oybek, I.Sulton A.Hayitmetov, H.Sulaymonov, Y.Is`hoqov, N. Mallayev, A. Abdug`afurov, A. Rustamov, V.Zohidov, B. Valixo`jayev, R. Orzibekov, I. Haqqulov, S. Erkinov, N. Komilov, Q.Tohirov, S.G`aniyeva, M, Muhiddinov, D.Salohiylarning qator ilmiy ishlarida, maqolalarida adabiy merosimizning qimmatbaho durdonalari tahlil qilib o`rganilgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Mana shu adabiyotshunos olimlar tomonidan tahlil etilgan asarlar hozirgi kunda adabiyotshunosligimizning katta yutuqlaridandir. Mazkur ilmiy asarlar orqali uzoq davrlarga taalluqli asarlarimiz va ijodkorlar haqida umumiy ma`lumotlarga ega bo`lamiz.

**O`rganilish manbalari.** G`azal mulkining sultoni hisoblanmish Alisher Navoiy adabiy merosi turkiy she`riyat hamda umumsharq adabiyotining eng ilg`or an`analarini o`zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqich hisoblanadi. Uning she`riyatida “ko`z” timsoliga oid matnlarni o`rganishda quyidagi manbalardan foydalandik.

Avvalo shoirning “Xazoyin ul-ma`oniy”devoni, “Navoiy A, MAT.”ning 3-4-5-6- tomlari, “Navoiy asarlari izohli lug`ati”, shuningdek, Oybekning “Navoiy g`azaliyoti” maqolasi, I. Sultonning “Navoiyning qalb daftari”, M. Shayxzodaning “G`azal mulkining sultoni”, Y. Is`hoqovning “Navoiy poetikasi”, A.Hayitmetovning “Navoiy lirikasi”, S. Rafiddinovning “Majoz va haqiqat” N.Komilovning “Tasavvuf”, “Ma`nolar olamiga safar”, D. Salohiyning “Navoiy nazmiyoti”, “Navoiy nasrida tasavvuf” N. Afoqovanning “Munojatnoma”si va boshqalar. Bundan tashqari, bitiruv malakaviy ishida yana Navoiyning boshqa asarlaridan va mazmuni yoritishda yuqorida tilga olingan Navoiyshunos olimlarning shoir she`riyati tadqiqiga oid ilmiy ishlardagi nazariy ma`lumotlar va tadqiqot uslubidan imkon qadar foydalanildi. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda

Alisher Navoiyning 20-tomlik mukammal asarlari to'plamining 3-4-5-6-tomlari ("Xazoyin ul-ma'niy")dagi g'azal janri baytlari asosiy tadqiqot manbai sifatida olindi.

Alisher Navoiy ijodining tub mohiyatini diniy-falsafiy, ilohiy-irfoniy, ijtimoiy va etik-estetik qarashlarning yuksak poetik shaklidagi ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri – Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi ijodiy merosining boyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini dunyoga tarannum etgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va etiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonh-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini, Navoiydek, teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi.⁴

Ilmiy amaliy ahamiyati. Alisher Navoiy she'riyatini to'laligicha ta'rif etishga til ojizdir. Navoiy she'riyati nazm olamining eng noyob durdona va nazm ichra mo'jizalarning mo'jizasi hisoblanadi. U hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan zukko olim va siyosat arbobidir. Shuningdek, u yaratgan adabiy-ilmiy meros

⁴ "Каримов И. Юксак маънавият йенгилмас куч. – Т.: Манавият, 2009. 48-бет.

o`zining ko`pqirraligi, ya`ni turli masalalardan bahs yuritganligi va har xil na`vlarda she`r yozganligi bilan o`zbek adabiyoti tarixida alohida o`rin tutadi.

Alisher Navoiy she`riyatida qo`llangan har bir so`z, tushuncha va badiiy timsollar maxsus o`rganishga arzigulik alohida bir olam deb qaraladi. Navoiy she`riyatida qo`llanilgan har bir so`z kitobxonda o`zgacha bir she`riyatga bo`lgan muhabbat tuyg`ularini uyg`otadi.⁵

Maqsad va vazifalari. Shuning uchun bo`lsa kerakki, Alisher Navoiy she`riyatida “qosh”, “ko`z”, “soch”, “zulf”, “xol”, “lab”, “ko`ngil”, “gul” kabi inson a`zolari va tabiat tasviri shu kabi poetik tasvirlarga bag`ishlangan qator ilmiy ishlar maydonga kelmoqda. Bu esa hozirgi davr Navoiyshunosligining o`ziga xos masalaridan biridir.

Shu masalalarga e`tibor qaratgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishida Navoiy g`azaliyotida “ko`z” timsolining turli ma`no qirralari va fors-tojik shoirlarining asarlari bilan solishtirma holda o`rganish maqsad qilindi.

“Ko`z” timsoli Navoiyga qadar Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy kabi ijodkorlarning asarlarida ham qo`llanilgan. Bitiruv malakaviy ishida mazkur ijodkorlarning ijodi bilan solishtirgan holda Navoiy uslubining o`ziga xosliklari va badiiy mahorati qirralarini o`rganish va yoritishga harakat qilamiz.

Ma`lumki, Navoiyning o`zbek tilida yozgan she`riyatining qomusi “Xazoyin ul-ma`oniy” hisoblanadi. Unda she`r nav`larining ko`pligi, mazmuni va badiiyati jihatidan o`zbek mumtoz she`riyatinig yorqin namunasidir. Ya`ni turkiydagi she`rlarning mukammal qomusi sanaladi.

Qayd eilganidek, “Xazoyin ul –ma`oniy”da Alisher Navoi tomonidan yozilgan 16 nav`dagi she`rlar bo`lsa-da, ularning asosini g`azallar tashkil etadi. Ushbu asarda 2600 ta g`azal bo`lib, to`rt devonda tartib beriladi. Shundan 2000 ga yaqin g`azallarda ko`z tasviriga oid baytlarni kuzatamiz.

⁵Исҳоқов . Навоий поэтикаси

Navoiy gʻazallarining mavzu koʻlami keng boʻlib, unda ishqiy, ijtimoiy, falsafiy va axloqiy mavzularni yoritishda koʻz timsolining ahamiyatli ekaniga guvoh boʻlamiz. Va natijada har bir gʻazal badiiy tafakkurning oʻziga xos uslubida yaratilganligini kuzatamiz.

Ishning tarkibi va tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusi “Alisher Navoiy sheʼriyatida timsollar rang-barangligi” nomli umumiy mavzuning tarkibiy qismi boʻlib, koʻz timsolining talqiniga bagʻishlanadi. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, umumiy hajmi 65 bet.

I. BOB. “Ko`z” timsoli va uning Navoiygacha bo`lgan turkiy she`riyatdagi talqinlari.

**1.1 Ko`z” timsolinig badiiyati.** Alisher Navoiy o`zbek lirik poeziyasini faqat mavzu va g`oyaviy mazmun jihatidagina emas, balki badiiy jihatdan ham yangi taraqqiyot pog`onasiga ko`tardi. Shakl va mazmunning uzviy birligi uchun kurashdi. U lirik turning xilma-xil janrlarida she`rlar bitdi. Bu janrlarning takomiliga katta hissa qo`shdi, yangi-yangi obraz, xarakterlar, peyzaj va portretlar yaratdi, realistik tasvir tendensiyalarini rivojlantirdi. Navoiy insonning murakkab his tuyg`ularni, ruhiy kechinmalarni mohirlik bilan ifodalab, turli adabiy usullar, badiiy til vositalarini qo`lladi, xalq og`zaki poeziyasidan foydalandi. Ma`lumki, obraz va timsollar - san`at va adabiyotning o`ziga xos bir kategoriyasi. Ijodkor biror voqelik yoki narsa va hodisani mushohada etib, ularni hissiy-ta`sirchan tarzda ifodalaydi. Xususan, shoir-ijodkor g`azalida insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etar ekan, shoir unda asrlar davomida shakllanib kelgan ananaviy timsollar va badiiy tasvir vositalarini qo`llaydi. Shu bilan birga ijodkorning tafakkur mevasi sifatida yangi timsollar va ifoda vositalari maydonga keladi. Yoki ananaviy obrazlarga shoir qaysidir jihatdan yangicha ma`no yuklaydiki, bu ham shoir mahoratiga xos adabiy-badiiy hodisa hisoblanadi.

Turkiy she`riyat tarixi haqida so`z borganda, bir qator timsollarning avval arab, keyin fors va so`ng turk adabiyotiga kirib kelganligini ham ta`kidlash lozim. G`azalda qo`llangan obraz va poetik timsollar muayyan bir qonuniyatga, g`azal kompozitsiyasining yaxlitligini ta`minlab turuvchi vazifaga egadir. Bundan tashqari, badiiy timsollar orqali nafaqat yorning go`zalligi, balki zamon va davr talablari, ya`ni g`oyaviy-estetik ehtiyoj ham aniq ko`rinib turadi. Ishqiy va orifona g`azallar tarkibidagi timsollar asosan oshiq va ma`shuq munosabatini xarakterlashga xizmat qiladi. Bu haqda I. V. Stebleva shunday deydi: G`azallardagi obrazlar va timsollar qanday bo`lsa ham ma`shuq husnini turli-tuman ko`rinishda namoyon qilish yoki oshiq

(lirik qahramon)ning har bir holatidagi iztiroblarini ko`rsatish zarur. Boshqacha qilib atganda, har qanday holatda ham yaratilgan obraz jononning jozibadorligi, nozikligi, go`zalligi va maftunkorligini, shu va shunga o`xshash boshqa sabab va xususiyatlarni gavdalantirib berishi kerak. Lirik qahramon ma`shuqaning beqiyos go`zalligini eslab, sog`inadi, uning e`tiborsizligidan, vafosizligidan iztirob chekadi, yig`laydi. Bu detallarning barchasi quruq faktlarning qaydi emas, balki obrazlar haqidagi qarashlarning alohida ahamiyatiga molikligidir.⁶

Ba`zan obrazlarning badiiy ahamiyatini yanada teran ochib berish uchun ularning uzoq asrlik takomilini, tadrijiy rivojini bilish zarur. Masalan, obraz yaratishning vosita, omillardan biri bo`lgan tashbeh san`ati orqali ko`zni jodu, qiymoch, nargis, ohuga va boshqalarga o`xshatish sharq she`riyatida, jumladan, arab, fors va turk xalqlari adabiyotida ananaviy qoidaga aylanadi. Ayni paytda zulf, qosh, kiprik, qaboq, xol, yanoq, og`iz, lab, tish, engak, g`abg`ab, zaqandon, soch kabi insonning uzvi bilan bog`liq o`ziga xos tasviriy vositalar ham ananaviylik kasb etadi.

Klassik she`riyatida inson a`zolarining turlicha talqini mavjud bo`lib, voqea va zamon o`tishi bilan bu talqinlar takomillashib, chuqurlashib borgan. Inson a`zolari to`g`rirog`i ma`shuqaning asosan yuz a`zolari turli narsa-predmetlar, xususan, yuz-oyga, qosh yangi chiqqan oyga, hilolga, kipriklari o`qqa va labi g`unchaga, la`lga va hokozolarga qiyos qilish kabi o`xshatishlarni mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodida ham ko`plab uchratish mumkin.

Yuzing mehri ichinda , ko`z solib, og`zingni ko`rmassen,-

Agarchi zarra xurshed ollida ko`zdin nihon ermas.

Shoir ma`shuqa og`zini tasvirlashga kelganda, uning kichikligini maqtaydi. Oshiqning ko`zi shunday o`tkirki, eng kichik zarra ham undan yashirinib qololmaydi, lekin shunday o`tkir ko`z ma`shuqaning yuziga

⁶ Стеблева И. В. Семантика газелий Бабура. Масква, 1982, стр. 103.

tikilib, uning og`zini ko`rolmaydi. Baytda ko`zning o`tkirligi-yu, og`izning kichiklik xususiyatlari aks ettirilgan.⁷

Mumtoz adabiyotimizda yorning yuzi, ko`zi, qoshi, labi, sochi, yanog`i, xoli kabi a`zolari keng va turli –tuman ma`nolarda badiiy, falsafiy aspektda tasvirlangan. Ma`lumki, Navoiy she`riyati rang-barang timsollar tilsimidan iborat. Shu sabab, shoir she`riyati badiiyatini jilolantirib turadi. Quyida so`z yuritmoqchi bo`lib turgan timsollardan biri “ko`z” ham ana shunday xususiyatlarga ega.

“Ko`z” sof “turkcha” so`z bo`lib, mumtoz she`riyatida beqiyos topilmalarga egadir. U nafaqat timsol balki obraz darajasiga chiqqan baytlarga ega. Shoir lirikasida yuz tuzilishi va tana a`zolari orqali ma`shuqa go`zalligi tarannum etgan. Biz “ko`z” orqali nafaqat yori-ma`shuqa, mahbuba go`zalligini, shuningdek, Haq-taollo (Olloh) ishq, basirat darajasini jilolanganiga guvoh bo`lamiz.

“Ko`z” badiiy adabiyot san`atlaridan tanosib, tashbeh, sifatlash, tazod, tajnisnlarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, bu holat ko`z va boshqa timsollar birgalikda qo`llangan chog`da yuzaga keladi. Shuningdek, ko`z timsoli yorning go`zalligini, nafosatini va oshiqning qiynog`-u azoblarini ifodalashga xizmat qiladi. Biz uning tana a`zosi ya`ni ko`rish a`zosi, ekanidan xabarimiz bor. Ya`ni ko`z kishilarda bir-biriga nisbatan ta`sir etish jarayonini, aks ettiradi. Fanda ham adabiyotda uning bir-biriga o`xshash va mushtarak jihatlarini isbotlanganiga guvohi bo`lamiz.

Chunki ko`z ham botiniy, ham zohiriy fazilat va illatlarni fosh etuvchi a`zodir. Shoir shaxsiyati ham bunday mutanosiblikdan unumli foydalangan holda o`zining badiiy estetik topilmalarini nomoyish etadi.

Insoniyatning ko`zi mo`jizaviy va takrorlanmasdir. Buni fan tili ham isbot etganini ko`rishimiz mumkin. Yillar davomida inson o`zgarib, boshqa a`zolar tanib bo`lmas darajaga kelsa-da, inson ko`zi

⁷ Хайитметов А. Навоий лирикаси. Т.: 1961, 178-б,

o`zgarmaydi. Xuddi shu narsani qalb ko`zi bilan bog`laganlar. Hamda shoir - ijodkorlar tasaffuvda qalb ko`zini, basirat darajasi, komil inson ruhida takomillashtirgan.

Mumtoz she`riyatda “ko`z”ni ma`shuqa yorning yuz tuzilishidagi a`zosi sifatida ham ta`rif-tavsif beradilar. Va ko`zni fors - tojik she`riyatida ko`proq “chashm” “nargis” istilohida kuzatamiz. Turkiy she`riyatda esa, bir qator leksik sinonimiyani tashkil etadi. Bunda “ko`z” timsolining o`xshashlikka asoslanganiga guvohi bo`lamiz. Masalan: ”ko`z” jodu, qayiq, qiymoch, sadaf, baliq, ohu, (kiyik), battol, jon oluvchi, baloangez kabi.

Navoiy she`riyatiga razm solar ekanmiz “ko`z” timsoli bilan birgalikda bir qancha timsollar qo`llanganini ko`rishimiz mumkin . Ulardan yuz, ming, xol, lab, xat, qosh, kiprik, soch , bel, og`iz, shuningdek, ko`z yosh ham. Shuningdek, rind, may, shayx, pir, solik va Yusuf, Yaqub kabi an`anaviy obrazlar bilan birlashgan holatda biz “ko`z” timsolining majoziy-ramziy tasavvufiy-falsafiy diniy qarashlarni kuzatamiz.

Qayd aylarg`a junun ahlini bor ul ikki soch,

Har biri necha tugun, har tugun necha quloch.

Turklarning qulidurmenki, nigorimning erur-

Qoshi turkona, qabg`i kengu ko`zi qiymoch.

Bunda o`zbek ayolining tashqi portreti juda real chizilgan: tugun-tugun qilib o`rilgan uzun-uzun ikki soch, turkona (sodda, to`g`ri) qosh, keng qovoq, qiymoch ko`z, millati turk. Shoir mashuqa tasvirida traditsion – romantik yo`ldan borsa-da, uning ko`z, o`ngida ko`p vaqtda oti bor-u o`zi yo`q narsa emas, real dunyoviy ayol obrazi turdi. Shoir qog`ozga shu real ayol tasvirini chizishga intildi. Shuningdek, Navoiy mashuqa haqida gapirar ekan yoki uning obrazini qog`ozga tushirar ekan, uning ko`z o`ngida yoki tasavvurida doim ideal husnda ko`zi ham orzu qilingandek, qoshi ham, qaddi ham, yuzi ham- har tomonlama to`kis ayol turadi.

Bor aningdekkim kerak ul ko`zu, qoshu, qadu yuz.

Oллоh-оллоh, kim ko`rubtur, husn bu yang`lig` to`kuz...

Yuqorida takidlangan timsollardan tashqari “ko`z” timsoli bilan bir qator ilmiy uyg`unlikni keltirib chiqargan ko`z yoshi ham bor. Ko`z yosh- ashkbon, ashk, to`fon, to`lqin, daryo, bahr, (dengiz), sel, yomg`ir, do`l, obi hayot suviga, simobga ko`zning birini yoshi Dajla, birini esa Frotga qiyoslashadi.

Mumtoz she`riyatida, xususan, Alisher Navoiy g`azallarida “ko`z” quyidagi birikmali usullarda qo`llanadi. Ba`zan ko`z timsolini biz tilshunoslikda so`z turkumlari vazifasida kelishiga ko`ra klassik adabiyotda yangicha ma`no kasb etishini ko`rishimiz mumkin. Ya`ni ko`z timsoli fe`l o`rnida quyidagicha bo`ladi: nazar tashlamoq, nigohi tushmoq, qaramoq, yo`q etuvchi, yig`lamoq, ko`zlar kabi. Ko`z timsoli ot bo`ib kelganda esa eng chiroyli tashbehlar yuzaga keladi: nargis, bodom, pista, charos, qiymoch, qayiq, kema, baliq, kiyik, Xo`tan ohusi, gavhar, ko`z oynak, Kabatulloh, ayn harfiga, o`g`ri, qotil, battol, xunxora, xunbor, jallod, jon oluvchi, kofirga qiyoslanadi.

Mumtoz adabiyotimizdagi rang- barang timsollar kabi “ko`z” timsoli ham o`zining badiyatiga ega bo`lgan ramzlarga ega hisoblanadi. Shu bilan birga Navoiy ijodida eng ko`p qo`llangan timsol desak ham mubolag`a bo`lmaydi.

1.2 Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy ijodida “ko`z” timsoli tasviri.

Ma`lumki, Alisher Navoiygacha bo`lgan turkiy she`riyatda bir qancha ijod va ijodkor ahli qalam sohibi bo`lgan. Shunday ijod ahlidan bo`lmish Xorazmiy, Atoiy, Lutfiylar lirikasi o`z davrining hayratiga sazovor bo`lganlar va mumtoz adabiyotimizdagi timsol va badiiy obrazlardan unumli foydalanib o`z ijodi ko`lamini boyitganlar. Xususan, ko`z timsoli ham ushbu ijodkorlar talqinida turlicha tasvir imkoniyatlariga ega bo`lgan. Shu bois ularning nazmi gavharlarida ko`z tasviriga birma-bir nazar tashlab o`tsak.

Ma`lumki, Navoiy yashab ijod etgan davrgacha bo`lgan adabiy muhitda Xorazmiyning ham ijodiyoti o`ziga xos namunalarni kashf etgandir. Buni biz

uning turkiydagi “noma” janriga asos solganida ko`rishimiz mumkin bo`ladi. Uning “Muhabbatnima” asarida ko`z tasviri va u bilan bog`liq san`atlarning yuqori ko`rinishiga guvoh bo`lamiz. Xorazmiyning ko`z tasviri bilan bog`liq baytlari mazmun –mohiyatiga nazar tashlasak, benihoya sodda turkona tilda yaratilgani va ma`shuqaning asl go`zalligi kuylanganini ko`ramiz. Buning uchun esa boshqa timsollar yordamga kelganiga ham duch kelimiz. Darvoqe, Xorazmiy ham turkiy nazmda benazr bo`lgan obrazlar va timsollardan unumli foydalanib o`zining “Muhabbatnoma”si shuhratini oshirgan.

Xuddi shunday ko`z timsoli ifodalagan majoziy, diniy-ilohiy ishq mavzusi yetakchilik qilgan misollarni keltirgan.

Ko`ngil shirin so`zingga bo`ldi Farhod,

Ko`zing Kashmir jodusiga ustod.

Xorazmiyning ushbu keltirilgan baytida talmeh san`ti qo`llagan. Bizga ma`lumki, sehr- joduning vatani Kashmirdir. Ko`z shunchalar sehrlovchi ekanki, uning jodusi hatto Kashmir sehridan ham o`tkirroq. Shuningdek, bu yerda so`zni–Shiringa, ko`ngulni –Farhodga o`xshatib, so`z o`yini iyhomdan unumli foydalangan. Lirik qahramonning ko`ngli yorning shirin so`ziga oshiq bo`lganini etirof etadi.

Quyida keltirilgan baytda tashbeh san`atini qo`llagan holda ko`z va kiprik timsollari birga kelgan.

Urur nargislaring novakni jong`a,

Kular chehrang chechaktek arg`uvong`a.

Sening nargisday ko`zlaring jonimga ayamasdan o`qlarini otadi, chehrang esa arg`uvon gulidek qizarib kulib turadi. Ma`shuqa shunchalar mag`rurki, o`z yoriga qilayotgan ozorlaridan uyalish o`rniga bu ishidan chechaktek yayrab-yashnab kulib turadi.

Ko`ngulning qoni qaynab barcha toshqay,

Ko`zumning yoshidan kavsar buloshqay.

Ushbu misralarda Xorazmiy mubolag`a san`atidan foydalangan. Ko`rinadiki, hijronda qolgan oshiqning ko`ngli qaynab toshib boryapti. Natijada uning ko`zidagi yoshning mo`lligidan Kavsardek toza suv ham bulg`anib loyqalanmoqda. Lirik qahramonning ishq shu darajada kuchliki, Kavsar suvini ham loyqalashga majbur bo`layotgani, ijodkor shaxsi oshiq qayg`usini bo`rttirib yuborayotganidan darakdir.

Qaro qoshingda yuz ming fitnalar bor,

Ko`zing ohusi arslonlarni ovlar.

Keltirilgan misralarda ijodkor qosh va ko`zning xususiyatlarini aytib o`tadi. Bunda mahbubaning qaro qoshlarida ming-ming fitnalar bisyorligidan ohudek chiroyli ko`zlarga ham hiylani o`rgatadi. Natijada u ko`zlari bilan arslonlarni ham ovlashga, mahv etishga chog`lanib, shaydolarini ko`paytiradi. Bu yerda mahbubaning ko`zi shunday ovchiki, ohu arslonnig emas, arslon ohuning tuzog`iga ilinsa.

Atoyi g`azallaridagi lirik qahramon, avvalo, oshiqdir. U goh ilohni sevadi, goh komil insonni madh etadi, goh tabiat va jamiyatga munosabat bildiradi, goh go`zallikka oshufta bo`lsa, goh falak, hijron, ag`yor jafosidan faryod qiladi. U goh go`zal mashuqaning vasliga vosil bo`lmoq uchun talpinadi. Shoir she`riyatida ko`z timsoli ruhiy ehtiyoj, hayotiy moammolar, yashash mohiyati va shunga o`xshash masalalar xususida so`z yuritadi. Shuningdek, inson va uning go`zalligini, o`zligini anglashga, hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Shu bilan birga shoirning ko`z orqali din va tasavvufga doir bayt va g`azallari ham diqqatga sazovordir.

Atoyi g`azallarida “ko`z” timsoli va yorning tashqi qiyofasi, husni bilan bog`liq ba`zi obraz va badiiy san`atlar borki, ular qayta-qayta kuzatiladi. Ular ham majoziy, ham tasavvufiy ma`no tashuvchidir. Takrorlanib turuvchi bunday poetik obraz va san`atlarda ananaviylik ustun bo`lsa-da, shoir ularga ijodiy yondoshadi. Mahbubaning har bir uzvi istiora, sifatlash bilan tilga olinadi yoki biror- bir narsaga tashbeh va qiyos etiladi.⁸

⁸ Раиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат Т.: “Фан” 1995-й 78-бет

Xususan, KO`Z- qiymoch, jodu, ohu, cho`lpon, jayron, kuffor, xaybar, nargis, sohir; KIPRIK- cherik, lashkar, nishtar, o`q; QOVOQ - muqashshar, (po`sti archilgan) bodom; QOSH – kamon, hilol, yoy, olmos, xanjar, qavsi quzah, Kabaning mehrobi, toqi Qisro; SOCH, ZULF-ganj ustida yotgan ilon, kamand, qattol, dom, sunbul, zanjir, Sulaymon lashkari, hindu, jim harfi; XAT –xizri farruxpay, sabzai chashmai hayvon, jon sahfasiga yozilgan yozuv; XOL-oshiqni tuzoqqa ilintiruvchi dona, hindu, qalamdan sachragan tomchi, nuqtai anbar, fulful kabilarga, shuningdek, og`iz, yuz, zaxandon, g`abg`aba, lab, bel, ko`ngul, qad, yanog` timsolarini ham o`zgacha tasvir etadi.

Shoirning har bir g`azali aslida insonda komillik va oriflik fazilatlarini tarbiyalash, voyaga yetkazish yo`lidagi bir vositadir. Atoyi lirikasida “ko`z” timsoli tasavvufiy-falsafiy, ilohiy-irfoniy mazmunda go`yo ana shularga ishora etgandek bo`ladi:

Piri mug`on adoqining to`zini ko`zga surma qil,

Ko`z bu yurishdin ochilur, bil muni ayni maslahat.

Ma`naviy rahbar bo`lgan pirni murid ezozlashi, unga buyuk hurmat aqlashi, ehtirom ko`rsatishi kerak. Shuning bilan birga har bir yo`l-yo`riq va ko`rsatmasini og`ishmay bajarishi shart.

Piri mug`on – o`tga cho`qinuvchilar, otashparastlar boshlig`i, rahbari, majozan mayxonachi. Bu baytda esa piri mug`on tasavvufiy ma`noda qo`llangan. Tasavvufda piri mug`on – komil inson va ruhoniy rahbardir. Boshqa o`rinda mayfurush, may sotuvchi ma`nosida keladi. Bunda adoq – oyoq, to`z – chang, g`ubordir. Ya`ni murid pirga shu darajada etiqod qo`yishi kerakki, hatto uning bosgan izini ko`ziga surma qilishi kerak. Ana shundagina ma`rifat ko`zi ochiladi va ilohiy haqiqat sirlaridan voqif bo`ladi. Bu baytda ko`z timsoli “marifat ko`zi” ma`nosida tasavvufiy talqinga egadir.⁹

Atoyi g`azallarida ko`z timsoli, ayniqsa, majoziy ma`noda qo`llanganida biz badiiy san`atlarning beqiyos namunasini ko`rishimiz mumkin.

Oy yuzung shavqinda tunlar to sahargah o`lturub,

⁹ Раиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат Т., “Фан” 1995-й 49-бет

Yondurub ko`z mash`alin, yoshtin quyarmen yog`lar.

Intizor oshiq sahargacha yorning oy yuzini ko`rolmay, qo`msab, uxlamay o`tirib chiqadi. U visol ilinjida barcha mashaqqatni tortishga tayyor. Tunning intihosi sahar bo`lganidek, hijronning oxiri visol bo`ladi. Yor diydoridan lazzatlanishga qattiq umid qilgan oshiq har qanday iztirobli damlarni boshdan kechirishga rozi. Shoir baytning birinchi misrasida lirik qahramon holatining umumiy ta`rifini, tashqi bayonini chizadi. Ikkinchi misrasida esa ruhiy, dardli holat manzarasi chiziladi.

Xuddi shunday mash`alaga qancha ko`p yog` quyilsa, u tunni shuncha ko`p ravshan qiladi. Oshiq ham ko`z mash`alasiga go`yo ko`z yoshidan yog` quyib, sahargacha tunni bedor o`tkazadi, ya`ni doimiy yig`I, birinchidan, uni uxlashiga imkon bermaydi. Ikkinchidan, qorong`uda yo`lovchiga mash`ala hamroh bo`lganidek, ko`z yoshi uning yagona hamdami, ovunchog`i.

Ushbu baytda tanosub hosil qilgan so`zlarning birinchi guruhiga oy, tun, sahar; ikkinchi guruhiga oshiq, yuz, ko`z, yosh; uchinchi guruhiga mash`ala, yog` so`zlari misol bo`ladi. Shu bilan birga bu obrazlar o`rtasida o`zaro munosabatlar, o`xshash sifatlar ko`p. Jumladan, oy bilan yuz (oqlik, ravshanlikda), tun bilan ko`z (qoralik)da, ko`z yoshi bilan sahar (soflik, beg`uborlikda)gi kabilar.

Atoyi bag`rini ko`ngli-yu ko`zi,

Tutarlar goh o`tda, goh suvda.

Quyida keltirilgan baytda ko`ngilning xususiyati, hissiy xossalaridan biri – kuymoqdir. Shuning uchun unda o`tning nisbati bor. Ko`z esa o`zidan suv (yosh) oqizadi. Shu sabab shoir bag`ri ishqdan o`rtanganda ko`ngli kuyadi va bu ishqning hasratini ko`z o`zining ashklari bilan haydashga urinadi.

La`lingni maqbul ayladi gul ko`zingkim,

Turk onlida bir hinduyi cholok keraktur.

Shoir chiroyli, o`ynoqi qora ko`zni chaqqon, kelishgan qora hinduga o`xshatmoqda. Shu bilan birga tildan chiqayotgan so`zni ko`z ilg`agan holda itoat etgan oshiq holatiga ham qiyos etish mumkin.

Atoyi ko`z timsolining ma`no–mohiyatini to`liq angalagan holda kuchli mubolag`ali tasvirlarni keltiradi:

Firoqingda ko`zum sarchashmasindin,
Qilurman har qayon boqsam tengizlar.

Mahbub ma`shuqaning hajr – firoqida shunchalar qiynoqda qolganidan ko`zidagi ko`z yoshlaridan chashma hosil bo`ldi va ko`z har qayonki boqsa, dengiz yasashi mumkin bo`lib qoldi. Yoki:

Bo`ldi daryo ko`z yoshim hajringda bir vasling sari,
G`ari lutfung kim kechirgay ushbu daryodin meni.

Atoyi g`azallaridagi ba`zi baytlarning mag`zini chaqish uchun shu bayt qo`llangan nomlar va u bilan bog`liq voqealarni bilish kerak.

Ikki ko`zikim, sehr iladur Somiri soni,
Har go`shada bor zulfi bikin yuz nigaroni.

Yuqoridagi baytning birinchi misrasida shoir yorning maftunkor ko`zlarini Somiriy degan sehgarning sehriga o`xshash, fitnakor va oshiqnlarni yo`ldan chiqaruvchi xususiyatga ega ekanligini uqdirmoqda.

Chohi Bobiltek qilib g`am go`shasin sohir ko`zing,
Sheva birla muhtalo qildi ko`ngul Horutini.

Bu baytda ham g`am go`shasini ixtiyor qilgan ma`shuqning sehrli ko`zlari chohi Bobilga, oshiqning unga band bo`lgan ko`ngli shu chohga osib qo`yilgan Horut degan farishtaga o`xshatilyapti. Demak, bu o`rinda shoir Horut va Morut degan farishtalar va ular bilan bog`liq voqealarga ishora qiladi va ko`zni sehgariqlik qilishini yana bir dalilini ana shu voqealarga bog`laydi.

Mumtoz adabiyotimizda yana shunday ijodkor siymo borki, bu Mavlono Lutfiydir. Lutfiy lirik asarlari markazida ham yuksak ijobiy ideallar egasi—oshiq va uning sevgilisi, mahbuba turadi. Oshiq oddiy kishiga xos fikr va xayol egasi sifatida boy ruhiy olam bilan yashaydi. U yer yuzidagi barcha ezguliklarga ochiqdan ochiq muhabbat e`lon qiladi, “u dunyo” mushohadasi, real hayot muhokamasida ko`z o`ngida mavjud bo`lib turgan

naqd imkoniyatlardan bahramand bo'lishga harakat qiladi. Uning uchun tabiat og'ushida yetilgan ohu ko'zli, guli xandon dilbar ham ma'nan, ham tashqi latofati bilan maftunkor dildor har narsadan ustundir. Ayniqsa, u ohu ko'zlari ila jonni o'rtasa, undan ajib hayot inomi yo'qdir.¹⁰

Boshqa ijodkorlar qatori Lutfiy ham o'z ijodida badiiy timsollardan unumli foydalangan. Xususan, ko'z timsoli uning ijodida ham yorqin va namunali baytlarni tashkil etadi. Masalan,

Qachonki g'amzasi ko'z qonima, qaro qilsa,
Xatosiz o'qni urar jonima xato qilsa.¹¹

Baytda ko'z va kiprik timsollari orqali tazod san'ati hosil qilinganini ko'rishimiz mumkin. Yorning g'amzasi, ya'ni noz va ishvalari shu qadar kuchliki, u oshiqqa qarolik, (yomonlik) sog'inadi. Ma'shuqaning qarashlari kiprikda jam bo'lib, ko'zga tomon otiladi va natijada ko'z jarohat olib, qon bo'ladi. Shu bois, mahbubaning xato qilmasdan, xatosiz o'qlarni yori tomon otganida oshiq ko'zlari visol ilinjida qon bo'lganiga guvohi bo'lamiz.

Usruk ko'zing ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.
Yaqub bikin xo'p yig'ladi qolmadi sensizin,
Nuri basarim xoh inon, xoh inonma.
Oy yuzingga ko'z solg'ali o'zga kishi birla,
Yo'qtur nazarim xoh inon, xoh inonma.

Lutfiyning mashur "Xoh inon, xoh inonma" radifli g'azalining to'rtinchi misrasida oshiq mahbubasining "usruk", ya'ni mast, xumor ko'zlariga nazari tushishi bilan xabari qolmasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, mast va xumor ko'zlar xoh ishoning, xoh ishonmang har qanday kishini o'ziga rom eta bilishiga ishora qilinmoqda. Keyingi misralarda esa talmeh san'ati ishlatilgan. Dinimiz tarixidan biz yaxshi bilamizki, o'g'li Yusufdan

¹⁰ Лутфий Сенсан севарим .Ғафур Ғулом Адабиёт ва санъати .1987-й. 6-7б.

¹¹ Лутфий Сенсан севарим .Ғафур Ғулом Адабиёт ва санъати .1987-й 12-б.

ayrilgani uchun ko`p yig`layverganidan Yaqub payg`ambarning ko`zlari ko`r bo`lib qoladi. Bu esa mumtoz she`riyatimizda ko`p bor tilga olinadigan, ishora qilinadigan talmehlardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon yori ishqida yig`layverib, ko`zdan qolganini aytish uchun shu tasvirdan foydalanadi. Albatta, shoirning ushbu baytdagi mazmunda biz ko`z timsolining diniy talqiniga guvoh bo`lamiz. Keyingi misralarda ko`z va yuz timsoli mutanosblikda qo`llangan. Shuningdek, “ko`z” bu yerda fe`l so`z turkumi o`nida kelib, “ko`z solmoq” iborasida ishlatilgan.

Lutfiyning ba`zi bir g`azallari boshdan oyoq ko`z tasviri bilan bog`liq ekanini ko`rishimiz mumkin bo`ladi. Bunga “Ayoqingg`a tushar har lahza gisu” deb boshlanuvchi g`azali misol bo`la oladi.

Tuturmen ko`zki, ko`rsam orazingni,

Ki derlar: “Oqqan arqqa oqar su(v)”.

Yuzingni tuttum ortuq oy-u kundin,

“Kishining ko`zidur, ore, tarozu”.

Ko`zing qonimdin iymannas, ajabtur,-

Ki: “Qo`rqar, qaydakim qon ko`rsa hindu”.

Ma`lumki, ushbu baytda lirik qahramon yorning yuzini (orazini) ko`rishga ko`z tutayotgani aytiladi, axir, maqol bor-ku “Oqqan ariqqa oqar su(v)” degan. Bundan tashqari, “ko`z” timsolini fe`l o`rnida qo`llanayotganini kuzatish mumkin. Keyingi baytda esa yuz va ko`z timsoli birga qo`llangan. Shoir yuz tasvirini izchil davom ettiradi va yuzni Oy bilan Quyoshdan ortiq deb ta`riflaydi. Chunki “Kishining ko`zi tarozi” degan maqol bor. Shu tariqa bu baytda tasvir yuzdan benihoya ko`zga o`tib oladi. Lirik qahramonning yor ko`zi oshiq qonidan iymannayotganiga, ya`ni qo`rqmayotganiga ajablanayotgani bejiz emas, axir “Hindi qayda qon ko`rsa, qo`rqadi” degan maqol bor. Bu yerda “ko`zing hindi” deyilayotgani yo`q, lekin ko`z tasviri bilan maqolda “hindi” so`zi kelishi zimdan shuni yuzaga chiqargan.

Ko`rinib turibdiki, Lutfiy bu g`azalida badiiy san`atlardan benihoya o`rinli foydalangan. Shu bilan birga, muallif ushbu g`azalini tamoman o`zbek xalq maqollari asosiga qurgan. Har bir baytda shoir maqol qo`llab, ko`z va yuz tasvirini izchil ta`riflaydi.

Ko`zingtek, kezguchi ayyora yo`qtur,
Qoshingtek, bir pari makkora yo`qtur.

Shoir bu yerda ko`zning ayorraligi-yu, qoshning makkoraligi-ga ishora qilmoqda. Ko`zning ayyorligini biz uning har tomon boqib, turli fitnalar boshlashida ko`ramiz. Shoir ko`z kabi bu ishni eplaydigan boshqa ayyora yo`qligini ta`kidlaydi.

Qosh egri shaklda ekanligi uchun ham makkoraga o`xshatiladi. Negaki, uning qiladigan ishi faqatgina odamlarni aldab, hushini o`g`irlashdir. Tabiiyki, qosh pariga ham qiyos etiladi. O`z o`rnida mahbuba ham ma`shuqqa qayrilma qoshlarini qoqib, uni o`ziga rom etadi.

Mavloni Lutfiy ham ko`z tasvirini quyidagi o`xshatishlarda namoyon etadi: dur, ravshan, sadaf, sehrigar, jodu, jallod, hindu, kofir, qiymoch, ayyora, makkora, Xo`tan kiyigi, cho`lpon, Yaqub payg`ambar, mast, xumor va boshqalarga.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, “ko`z” talqinida har bir ijodkor o`z yangiligi va novatorligiga erishgan hisoblanadi. Biz buni yuqoridagi baytlar misolida ham ko`rishimiz mumkin. Zero, timsollar badiiy adabiyotning organizimi sifatida ishlatilishiga guvoh bo`lamiz. Bu timsol nafaqat mumtoz she`riyatda, balki hozirgi zamon lirikasida ham o`zining ijobiy va salbiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

II BOB. Alisher Navoiy she'riyatida “ko`z” imsol.

**Ko`z timsolining tasavvufiy –falsafiy talqini.** Ma'lumki, tasavvuf insonni ulug`lash, hayotning qadriga yetish, oqilona o`tkazish g`oyalarini targ`ib qilishga nazariy zamin hozirlab, insonparvar shoirlarning ilhomiga ilhom qo`shgan. Bu ta'limotning negizi savqi tabiiy, ruhiy qo`zg`alish, vahiylik ham shoirona tafakkur kayfiyatiga mos tushadi. Va, umuman, biz shayxlar, oriflar tasavvufidan ijodkorlar tasavvufini farq qilishimiz kerak. So`fiylar uchun tariqat zikru samo` vajdu hol, kasbu karomat edi. Attor, Rumi, Jomiy, Navoiy singari buyuk shoirlar uchun esa u shuuriy mushohada usuli, inson zotini ma`naviy barkamol holda ko`rish orzusi, sirli-xayoliy olamni tasavvurda yaratib, Ideal bir go`zallik ishqida yonish bo`lgan odamning asrlar davomida abadiy hayot, rivoyat – asotirlar bu behudud romantik olam ufqini kengaytirgan. Shu bois, tariqat xonaqohida o`tirmagan, ya`ni rasman so`fiy bo`lmagan Alisher Navoiy mazkur ta'limotni maslak, mafkuraviy e`tiqod sifatida qabul qilib, o`zining insonshunoslik, haqparastlik va adolatparastlik g`oyalariga bo`ysundirgan edi. Shoirning ijodi ana shunday murakkab va ko`p qirrali, ibora obrazlar ko`p ma`noli, teran. Uning har bir asari haqida to`xtalganda, bu xususiyatni albatta e`tiborga olish lozim.¹²

Alisher Navoiy she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz unda rang-barang tasvirlarga duch kelamiz. Inchinun, bunday tasvirlarda tasavvufiy – falsafiy dunyoqarashlar ham kuzatiladi. Ko`zning bu tasvirlarda ishtirok etishi mazmunning yuqori ko`rinishlaridan biri hisoblanadi. “Ko`z” timsolning botiniy aksi zahirida tasavvufiy qarashlar yuzaga kelganini ko`rishimiz mumkin.

Garchi qotil ko`zidin o`lsa tirik

Tirilur no`shi labidin ham o`luk.

¹² Комилов Н. Маънолар оламига сафар. Т.: “Тамаддун” 2012, 172-173 б.

Agar ko`z qotillik qilib, tirikni o`ldursa, lab esa jonbaxsh xususiyati sabab o`likni tiriltiradi. Oshiq mashuqasining qotil ko`zlaridan o`zini yo`qotgan bo`lsa, uning la`li labidan joni oro topadi. Ya`ni labning hayotbaxsh xususiyati tufayli o`likka jon ato etadi. So`fiyona talqinga rioya qilsak, lab-ma`naviyat olamidan malaklar vositasida anbiyo va oriflarga nozil bo`lib zavq va shavq ilhom paytida ular tilidan ko`ngliga ko`chadigan shirin kalom hisoblanadi. Sir-u asror va g`ayb ilmini o`rganayotgan so`fiylar ming bir qiyinchilikka duch keladi. Shu sabab ular labning shirin kalomi evaziga hayotga qaytishadi.

Alisher Navoiy she`riyatida ko`zning zulf timsoli bilan birga qo`llanilishida ham tasavvufiy talqinlarni kuzatish mumkin.

Bo`lmasakofirko`zing, oshuftasishaydoko`ngul,

Rishtayi zulfig anga, zunnor bo`lg`aymu edi.

Navoiy oshiq ko`ngli mashuqani kofir ko`zlarini oshuftasi bo`lmaganda edi, yor sochlarining rishtasi unga zunnor bo`larmidi. Deya ko`ngilning yor ko`zlariga oshiq bo`lganini bildiradi. Nega shunday, nega ko`ngul yor zulfi halqalariga ilinmay visolga yetishishi mumkin emas. Tassavvuf bo`yicha, soch-mavjud dunyo ramzi. Ya`ni Mutlaq ruh dunyoni yaratar ekan, unga o`z nurini taratib (tajalli etib) harakatga keltirgan, husn-u jamol bag`ishlagan. Dunyo-kasrat, ya`ni ko`plikni anglatadi. Bunda ilohning sifatlari mujassam. U shunday dunyoki, iloh manbasiga nisbatan qorong`uroq va zulmatli. So`fiylar nazdida sochning uzunligi va qoraligi ham dunyoning bepayonligi va zulmatiga ishora. Sochning halqalari : solik ruhi ovora band bo`ladigan dunyo tashvishlaridir. Sochning uchi esa, insonning o`zi. Boshqacha aytsak, inson tajalliyotining oxiridir. U asl manbaga qaytishga intiladi. Chunki u mutloqiyatdan ajralgan, hijronda. Lekin dunyo tashvishi zulmatni, xalqalarni yengmasdan turib, Mutlaq ruh jamoliga musharraf bo`lolmaydi. Bu baytda ko`ngil, ko`z va soch timsollari birga qo`llangan. Baytning mazmuni shu.

Erur ko`ngulda safo ishq toza dog`i bila,

Nechunki ko'zda yorug'liq erur qarog'i bila.

Ma'nosi: Ishqning dog'i yarasi tozarishidan ko'ngulda shodlik, surur va ravshanlik paydo bo'ldi. Zotan, bunga ajablanmaslik kerak, chunki ko'zning ravshanligi uning qorachug'idan umuman olganda, baytning mazmuni shunday. Biz bunda ajoyib tashbehga guvoh bo'lamiz: ko'z gavhari qora, ammo ko'rishning quvvati, yorug'lik o'shandan, demak ishq ko'ngilga dardu dog' solsa-a, lekin ko'ngil ko'zini ravshanlashtiradi, olamni musaffo nigoh bilan idrok etishga charog'i hidoyat bo'ladi. Navoiy shu tashbeh orqali tazod san'atining favquladda yangi variantini kashf etgan va inson ruhidagi dramatism, qarama-qarshi holatlarni tushuntira olgan : ishq –muhabbatdan forig' odam tinch, xotirjam yashashi kerak. Biroq hayotda buning aksi bo'ladi, muhabbatga giriftorlik, xursandchilik, farog'atga sabab bo'ladi. Ko'ngil bu darddan yayraydi! Shoir oqlik va qoralikni (baytda "safo" "toza" so'zlari ham o'zaro mutanosiblikka kirishib zavqli bir tuyg'u bag'ishlaydi), qullik va ozodlikni, ishqiy bezovtalik lazzati va ishqsizlik badbaxtligini qiyoslaydi, so'fiyning tan azoblari evaziga tuyadigan ruhiy- ma'naviy huzurini olqishlaydi.

Ushbu baytda ham shoir ijodida ko'z timsolining tasavvufiy-falsafiy talqini qo'llangan o'rinlar kuzatiladi.

Barcha elga fitna bo'lg'on, ko'zga maftun bo'lmayin

Har kishi nazzora aylar, yuzni manzur etmayin.

Ya'ni "Barcha fitna-firib bilan aldagan ko'zga maftun bo'lmaslikka, (aldanmaslikka), barcha qaraydigan ko'zga qaramaslikka ahd qildim"- deydi. Barchani fitna-yu firib bilan aldayotgan ko'z-dunyo bo'lishi ham dunyo nafosati bilan boqqan Mutloq ruh chashmasi bo'lishi ham, yuz – ko'zidan nur yog'ilib turgan komil inson bo'lishi ham mumkin. Har holda mashuq ko'zi fitnakor, aldamchi, ekani aniq. U barchani oshufta etadi. Ishq aslida ana shu maftunkor yuz- ko'zga qarashdan boshlanadi. O'sha ko'zlarki, bechora oshiqni bir lahza tinch qo'ymaydi. Xo'sh agar yuz va ko'z ilohiy sifat tajalliyot belgisi bo'lsa, nega u maftunkor va aldamchi? Gap

shundaki, tariqatda, mashuq ko`zi basirat darajasi, ya`ni qalb ko`zining o`tkirligi, ayni vaqtda u oshiqni imtihon etuvchi, sinovdan o`tkazuvchi-kuch. Ilohiy jamol turli ko`rinishlarda jilolanib, qalbgga yo`l izlaydi. Ko`z - jilomavj, tovlanish, sehu-jodu maftunkorlikdir. Ko`z shu bilan birgalikda g`aybning manbai, sir-u asror yuz va fitnakor ko`zlardan bekinish ilohdan yuz o`girish bilan barobardir. Yaxshisi ishq olovida kuyish nasib etsin, jodu ko`zlardan ayirmasin chashmasidir. Baytda yuz-u ko`z ilohiyot jamoli timsoli va komil inson chashmasi. Shuning uchun bu ilohiy .Navoiyning “Jong`a chun dermen :” deb boshlanuvchi g`azalida ham “ko`z” tasavvufiy –falsafiy xususiyatlari haqida so`z boradi.

Ko`nglum qilsam g`azab, ayturki: “Ko`zdindur gunah,
Ko`rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati”.
Ko`zga chun dermenki : “Ey tardomani yuzi qaro,
Sendin o`lmish telba ko`nglumning balovu vahshati! ”
Yig`lab aytur ko`zki: “Yo`q erdi mango ham ixtiyor,
Kim ko`rindi nogahon ul sho`hi mahvash tal`ati ”.

Birinchi baytda shunday deyiladi: Achchiqlanib ko`nglimni so`roqqa tutsam, shunday deydi: “Bu ko`zning aybi, agar u jononni ko`rmaganda edi, bizga bu ishning gunohi tushmagan bo`lar edi”. Ko`zga : “Ey buzuv axloqli, yuzi qora, telba ko`nglum boshiga tushgan balo va uning dahshatli qo`rquvi sendin ekan ”, deb g`azab qilsam,(Ko`z) yig`lab aytdiki: “Meda ham ixtiyor yo`q edi, to`satdan oy yuzli sho`xning yuzi ko`rinib qoldi”. Xullas, jon jismning kasalikka uchrab qolganini aytadi, shundan keyin jismga savol berilganda, jism bag`irdagi olovning haroratini sabab qilib ko`rsatadi. O`z navbatida bag`ir ko`nguldagi ishq chaqmog`ining shulasi menga tegdi. Natijada shu ofatga giriftor bo`ldim, deydi. Ko`ngil esa ko`zni aybdor qilib ko`rsatadi. Lekin ko`zda ham ayb yo`q edi, zero “ul sho`hi mahvash ” yuz ko`rsatganda ko`z beixtiyor unga qaragan edi.

Ya`ni ishqning inson a`zolari, ko`ngli, butun vujudini qamrab olishga sabab Husnning jilva qilishi edi. Bu go`zal mahbub ilohiy tajalli ekani aniq.

Shu nur, shu ohanrabo ziyo pok qalblarga joylashib olgach, ularning qon tomirlarida oqa boshlaydi, hislari fikr-o'yi, ruhiyatni butkul band etadi va oshiq Husnning mazharidan manbaiga qarab borish, unga yetishish yo'lida o'rtanaveradi. Shuningdek, bu ilohiy ishqni inson a'zolari orqali yoritilishi ham bejizga emas. Bu yerda ko'z ham ishq ilohiyini yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Zero, Alisher Navoiy uchun mazhar muhabbati ham("majoziy mu habbat"), manba muhabbati ("ishqi haqiqiy") bir vaqtning o'zida nazarda tutilgan, shoir bu ikki tushunchani bir-biriga zid qo'ymaydi, ammo ular orasidagi farqni ham inkor etmaydi.

Netti jon topsam visolingdin labingning xolidek,

Ko'zu zulfingdin necha mastu parishoning bo'lay.

Baytning e'tiborli tomoni shundaki, ko'z - lab, xol, zulf timsollari birgalikda ilohiylikni vujudga keltirgan. Oshiq yor labidagi xolga havasi keladi, chunki u vasl og'ushida - Yor bilan birga. Qaniydi men ham shu xol kabi visoldan jon topsam, yayrasam, murodimga yetsam, holbuki men Yor ko'zidan mast, zulfiday parishon Holman, deydi oshiq. Xol- aslida tasavvufda vahdat nuqtasi, ya'ni zohiriy olam mushohadasi orqali kulliyotga yetish, Alloh jamoli mohiyatini idrok etishga ishora. Biroq bu g'azalda xolning ushbu ma'nosi bilan real insoniy go'zallik belgisi sifatidagi mazmuni birlashgan. Boshqacha aytganda, reallik va ramziylik, ilohiy ma'no dunyoviy ma'no bilan birlashgandir. Shu bois oshiq xol bo'lgisi keladi. Ya'ni Yor vasliga yetib, vahdatni isbotlashga chog'lanadi. Ko'zning oshiqni mast qilishi uning jonon jamolining ayonlashuvi - ko'rinishidan behudu behush bo'lishiga ishoradir. Umuman, ko'z insonning mohiyatini aks ettiradi va kishining kishiga ta'siri ham ko'z orqali kechadi. Shu bois, mashuqa ko'zi oshiq dilini rom etuvchi qudratga ega. Zulf esa parishonlik va hijron ramzi. Zulf oshiqlarning yuzini berkitadi (yuz-mohiyat, manba bo'lsa, zulf, soch-uni yopuvchi parda). Zulf moddiy dunyo kasratiga ham ishora etadi. Dunyo esa parishonlik, hijron, iztirob joyi. Dunyoni to'la zabt etib, anglab, yuzini ochgan darvesh Haqqa yetadi.

Qaro ko`zum, kelu mardumliq edi fan qilg`il,

Ko`zum qarosig`a mardum kibi vatan qilg`il.

Ammo Navoiyning so`fiyona ma`nolarini anglagan odamga To`ychi xofiz ushshog`i yana ham kuchliroq ta`sir etadi. Zero “ushshoq” oshiqlar degani, ya`ni oshiqlarning ishq dardi, ayriliq va sadoqat ihlosidan hosil bo`lgan tuyg`ular nolasi, falakka o`rlagan fig`on bu. “Ushshoq” - “Shashmaqom” kuylaridan. “Shashmaqom” so`fiylar maqomotining musiqaviy ifodasini. Demak, ushshoq Ilohga intilgan ruhning nolalaridan biri.

Darhaqiqat, ushbu g`azalda oshiqning yetuklik va kamolot timsoli- Komil insonga muxabbati ifodalanadi. Tasavvuf lug`atlarida ko`z- Komil inson timsoli deb sharhlanadi, chunki u faqat o`zgalarni ko`radi, o`zini esa ko`rmaydi. Agar yuz ilohiy zuhurot rasmi bo`lsa, ko`z shu zuxurotni jamlagan manba - mazhari komillikning ramzi. Ko`zni sevish orqali ilohiy jamolni sevish ifodalanadi. Navoiy qahramoni ana shu Insonni o`z ko`zining gavhriga almashtirmoqchi - qalb chirog`i etmoqchi bo`ladi. Shoir ishlatgan so`z o`yinlari ham shunga yunaltirilgan: “mardum” - ko`z qorachig`i va insoniylik ma`nosida keladi, “fan” - odat, o`rganish va tadbir.

Shunday qilib, baytning mazmuni: “qora ko`zlugim (go`zal yorim), kel endi, odamiylik muruvvatini rasm qilgin (o`rganib ol); ko`zimning qorachig`iga (gavhariga) gahar (qorachig`) kabi o`rashgin (maskan tut)” Alhosil: “qora ko`zligim, kelginda, lutf-shafqat, vafo rasmini tuz (vafoli bo`l), men uchun sen ko`z qorachig`iday azizsan, joying ko`zim ichida”.

Demak, Komil inson, Piri komil Navoiy uchun eng aziz, eng mahjub, eng qadirlı va uni ko`z qorachig`iday asrashga intiladi, unga talpinadi, butun vujud bilan shu vujudga singib ketmoqchi bo`ladi: Bunday baytlar klassik tanqidchilikda shoirlik mahoratining baland namunasi - husni matla' (shoh bayt) deb baholangan.

Erur ko`ngulda safo ishq toza dog`i bila
Nechukka ko`zda yorug`lik erur qarog`i bila.

Ishqning dog`i-dardu alami, asorati tamg`a yarasi tozarishidan ko`ngilda shodlik, surur va ravshanlik paydo bo`ldi. Zotan, bunga ajablanmaslik kerak, chunki ko`zning ravshanligi uning qorachug`idan. Umuman olganda baytning mazmuni shunday. Ajoyib tashbeh: ko`z gavhari qora, ammo ko`rishning quvvati, yorug`lik o`shandan, demak ishq ko`ngilga dardu dog` solsa-da, lekin ko`ngil ko`zini ravshanlashtirmadi. Olamni musaffo nigoh bilan idrok etishga charog`i hidoyat bo`ladi. Navoiy shu tashbeh orqali tazod san`tining favqulodda zo`r variantini kashf etgan. Va inson ruhidagi dramatizm, qarama-qarshi holatlarni tushuntira olgan: ishq-muhabbatdan forig` odam tinch, xotirjam yashashi kerak. Biroq hayotda buning aksi sodir bo`ladi, muhabbat dardiga giriftolik, xursandchilik, farog`atga sabab bo`ladi. Ko`ngil bu darddan yayraydi! Shoir oqlik va qoralikni, qullik va ozodlikni, ishqiy bezovtalik lazzati va ishqsizlik badbaxtligini qiyoslaydi, so`fiyning tan azoblari evaziga tuyadigan ruhiy-ma`naviy huzurini olqishlaydi. Shunday qilib, ishq dog`i ag`yor domi, dunyo qudrati qulligidan ko`ngilni ozod etadi. Ilohni sevish, unga qul bo`lish qullikdan ozod bo`lish ning chin yo`li, demak, bunday qullikdan xursand bo`lish kerak. Shuning uchun ham oshiq mahbubasining tamg`asini ko`nglida asrab, unga qul bo`lishdan ko`ngli osmonda. ishqning farag` va farog`at, safo va ro`sholik keltirish xosiyatini shunday ajoyib orginal toza tasvir bilan ifodalagan.

Ma`lumki ko`z va kiprik timsollari birgalikda qo`llanganda ham turli ma`no mutanosibligiga erishadi. Ushbu baytda esa ayricha holatni kuzatamiz. Ya`ni kiprik ko`z timsoli o`rnida qo`llanib, tasavvufiy ma`nolarni ifodalaydi.

Firoq shomi yengilmas o`qung ko`ngul yo`lini,
Ki borur sari paykondin charog`i bila.¹³

¹³ Комилов Н Тасаввуф. Т.: Моварауннахир – Ўзбекистон, 2009. 221-222-бет.

Birinchi baytda gi qorong`u -yorug` tazodi davom ettirilgan, ammo ma`no boshqa. Birinchi baytdagi tashbeh asoslari dog` va ko`z qorachug`i ijobiy ma`nodagi rang edi, aniqroq qilib autsak, bu qoraliklar ochiqlik, ravshanlik keltiradigan edi, firoq shomi esa oshiq uchun yorug`lik emas, azob-iztirob olib keladi. Oshiqning hijrondagi kunlari tun bilan barobar. Hijronda oshiq uchun yorug`lik yo`q, uning tongi zim-ziyo, quyoshi mahv etilgan. Firoq shomi tariqat ahli nazdida solikni ilohdan ajratib turuvchi parda, kasrat pardasi, ya`ni dunyo ishlari bilan ovoragarchilik. Firoq shomida, deydi shoir, mashuqqa qarab, o`qing (kipriging) ko`ngim yo`lini adashmasdan topadi, chunki u ko`ngilga tomon chirog`i bilan kelyapti. Nimaga ishora bor bu yerda? Gap shundaki, “paykon” so`zi ham o`qni bildiradi. Lekin bu yerda kamon oqi nazarda tutilayapti. Kamon o`qining o`tkir uchi esa metaldan yasalar edi va u nishonga qarab uchib borayotganda metal qismi yaraqlab turar, ba`zan esa olov sochayotganday, shula`lanib ko`zga tashlanadi. O`qning ana shu holatini Alisher Navoiy chiroq ko`tarib borayotgan odimga o`xshatib, jonli va chiroyli surat chizgan: “Firoq shomida, ya`ni sening yoding vaqtincha ko`ngildan ko`tarilib, duyo ish- tashvishi parda bo`lib meni sendan ajratganda, o`qing adashmasdan ko`ngil yo`lini topadi, zero u oz nishoniga paykonni chiroq qilib borayapti”. Bunday tashbehni hech qaysi bir shoirda uchratmaymiz: yorning kiprigi- zulmatni yoritib borayotgan mash`ala, go`yo zim-ziyo tunda chaqilgan chaqmoqday. Albatta, mashuqa kiprigini chaqmoqqa tashbeh berganda Navoiy ko`zni nazarda tutgan, chunki aslida kiprik birovga qaratib otilmaydi, balki nazar, qarash yo`naladi, ya`ni ko`zning nuri, energiyasi ta`sir etadi, joziba, kuch bag`ishlaydi. Shuning uchun kiprik- chaqmoq samoviy miqyosda ilohiy nurning yarq etib ko`ngilni yoritishi yoki zaminiy miqyosda sohibkaromat pirning nazar qilishi, bir nigoh bilan qalblarga g`ulg`ula solishi tarzida talqin qililishi mumkin. Oddiy hayotda ham qalb kitobi bo`lmish ko`zlarning ko`ngillarni bog`lashi, sevgiga zamin hozirlashi ko`p uchraydigan hodisa.¹⁴

¹⁴ Комилов Н Маънолар оламига сафар. Т.: “Тамаддун” 2012, 211-212 б.

Ma'lum bo'lishicha, mumtoz she'riyatda bodom timsoli nafaqat ko'zga o'xshash bo'lgani uchun ta'rif va tavsif etiladi. Balki tassavvufiy ma'nolari bo'lganligi bois ham ko'z timsoli bilan birga qo'llanadi.

Ne uchun bazmi visol ichinda ichmay bodakim,

Ko'ziyu og'zi bukun bodomu shakkardur manga.

Ushbu misralarning majoziy mazmuni quyidagicha: Nega endi visol bazmida boda ichmay, axir uning bodomday ko'ziyu shakkarday shirin og'zidan lazzatlanish baxtiga erishdim. Bu she'rda ko'z, boda, bodom, og'iz kabi timsollar qo'langaniga guvoh bo'lamiz. Ilohiy- irfoniy ma'noda boda- ishqdir va ishq orqali ilohiy kashflar, g'alabalarga erishishni bildiradi. Ya'ni orif inson ishqdan sarxushu mast bo'lish vositasi. Navoiy shu bois g'azal maqtasida ham shuncha sarxush va shodmanki, yor vasliga yetdimmi-bilmay turibman, balki bu holatim tasviri bir xayoldir yoki butun olam meniki bo'ldimikin, degan fikrni bildiradi.

Ma'lumki, tasavvufda bir qancha tushunchalarning aksaryati ko'zni tasvirlashda ishtirok etadi. Jumladan, pir-solikning basirat (ehtiyotkorlik, aql-idrok donolik, uzoqni ko'rish) darajasi va g'ayb olami kabilar bunga misol bo'la oladi. Kishi ko'zining naqadar yorqinli va o'tkir nigohga ega ekanini quyidagi hikoyat orqali ham bilishimiz mumkin:

Ey o'g'il! Agar ko'zingni ochsang, sabr (muloyimlik) suvi ham, g'azab o'ti ham Haqdanligini ko'rasan. Ikki barmog'ingni ikki ko'zing ustiga qo'y: biror narsa ko'rayapsanmi? Sen ko'rmasang ham dunyo bor. Ayb shum nafsning barmog'da. o'zingga kel! Ko'zingdan barmog'ingni ol-da, nimani istasang ko'raver. Inson ko'zdan iboratdir. Qolgani teri. Do'stni ko'ra oladigan ko'znigina "ko'z" deyдилar. Do'stni ko'rmagan ko'zni ko'r bo'lgani yaxshi. Bunday kishi Sulaymon bo'lsa ham, chumoli undan afzalroqdir.

Achchiq-shirinni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Basirat ahli ularni oqibat panjarasidan ko'ra oladi. Oqibatni ko'rgan ko'z to'g'riini ko'ra oladi. Ko'rayapman deysan, ammo uni ko'rishni aniq-tiniq nishonalari

bor. Dengizni ko`pigini ko`rdingmi, maftun bo`lishing kerakki, dengizni ham ko`rasan. Ko`pikni ko`rgan sirlarni aytadi. Ammo dengizni ko`rgan hayratda qoladi. Bir minorani ko`radi, minoradagi kushni ko`rmaydi. Minoradagi lochini ko`z ilg`amaydi. Ikkinchi qanot qoqqan qushni ko`radi, lekin qushning og`zidagi ukparni ko`ra olmaydi. Alloh nuri bilan qaragan esa ham qushni ko`radi, ham og`zidagi upkarni. Biri insonni naqshlar bilan bezagan loy sur`atida ko`radi, boshqasi ilm va amal bila to`la loy shaklida! Badan minoradir, ilm va ibodat qushga o`xshaydi, uni, istasang, uch yuz dona deb hisobla, istasang ikki dona. O`rtacha fikrlovchi odam faqat qushni ko`radi, uning oldi yoki orqasida hech narsa ko`rinmaydi. Par esa qushda yashirindir, qush bilan tirik, tumshug`ida par bo`lgan qushning doimo jonidan jo`shadi. Na vaqtinchalik, na qarzga olingan bo`lmaydi!¹⁵

Xuddi shunday tasavvufda “g`ayb olami” ham inson ko`zini ravshanlashtirishga harakat qilishiga guvoh bo`lamiz. G`ayb – umid va qo`rquv pardasini yo`q qilgach, u butun salobati, ko`rkamligi bilan paydo bo`ladi. O`rtada bo`lmagan arsaning xayoli kattalashganidan kattalashadi. Ammo g`oyibda paydo bo`lgan narsa paydo bo`ldimi, xayol chekinadi.

Garchi biror narsaning haqiqatini izhor etish, asosan, kamoldir va jonlarni xayoldan xalos etar, ammo g`aybga ishonishning ko`ringan narsaga isbatan ming bir fazilati bor: shaytonlar osmon tegrasida aylanadilar, kezaadilar-u “Lavhi mahfuz”dagi g`ayb sirlarini bila olmaydilar.

Ko`ringan surat g`ayb olamidagi suratga dalolatdir, u esa boshqa bir g`ayb suratidan tashkil topgandir. Shu taxlit bularni fikrning miqdorigacha sanab turmoq lozim. Bu xuddiki, shatranj o`yiniga o`xshaydi, ko`zni atrofdan oldinga olish kerak va qarshisidagi raqibni mot qilib, hammasini kuzatib turish lozim.

Shunday qilib har bir kishi nigohi va fikri miqdorigacha g`aybni ham ko`radi, kelajakni ham, yaxshini ham ko`radi, yomonni ham. Ko`zning oldi -

¹⁵ Жалолоддин Румий. Қалб кўзингни оч, -Тошкент: Санно-стандарт. 2010, 21-бет.

ortida bir parda qolmadimi, butun dunyo tep-tekis bo'ladi, ko'z g'ayb lavhini o'qiydi. Ko'zingni ortga burdingmi, hayot boshlangan paytdan boshlab bo'lib o'tgan mojarolar, dunyoning yaratilishi ko'ziga ko'rinadi! Har bir kishi ko'nglining ravshanligi nisbatida g'aybni ko'radi. Kim ko'nglini ko'proq jilolagan bo'lsa, ko'proq ko'radi.

Yuqoridagi misollar va baytlardan ham ko'rinib turibdiki, Navoiy nazmiyotining ko'pchilik qismi ilohiy – irfoniy mazmunda kechgan. Zero, taniqli navoiyshunos olim R.Vohidov aytganidek: “Alisher Navoiy va ilohiyot egizak tushunchalar, ularni ayri-ayri talqin etish gunohdir”.¹⁶

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko'z insonni komil inson bo'lib kamol topishida ishtirok etuvchi ilohiy obraz hisoblanadi. Bunda ko'zning yuqorida zikr etilgan tasavvufiy ma'nolari yordam beradi. So'fiylik nazdida ko'z- ilohiylikni o'tkir qalb ko'zlari orqali ko'ra olish va kishini sinovdan o'tkazuvchi timsol hisoblanadi.

Ko'z timsolining diniy talqini. Hazrat Amir Nizomiddin Alisher Navoiy diniy -ma'rifiy tafakkuri taraqqiyoti islom ma'naviyatini keng drok qilish va uni o'z ijodiy va ijtimoiy faoliyatida targ'ib etish g'oyalari bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi islom dini tashviq etgan asosiy g'oyalardan biri bo'lib, u kishilik jamyati tarixida faqat shu dinda o'zining mukammal yechimini topgan. Chunki islom dini o'ziga etiqod etgan barcha mo'min- musulmonlarni yaxshi xulqli, ilmi insondagi barcha oily fazilatlarga ega bo'lishga chorlaydi.

Alisher Navoiy insoniyatni ma'rifatlantiruvchi faol san'at turlaridan bo'lmish adabiyotning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib o'zining lirik asarlarida bu insonparvar din asoslarini, aqidalarini go'zal badiiy libosda o'quvchiga yetkazib beradi. Har qanday ilmiy yoki badiiy asarda bo'lani

¹⁶ Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: “Бухоро” 1994, 141-бет.

kabi Navoiy she'riyati asarlarida ham shoirning yuksak ma'naviy dunyosi, chuqur diniy dunyoqarashi bevosita aks etib turadi.¹⁷

Biz shoir she'riyatida ko'z timsolining diniy –ma'rifiy talqinidagi g'azallariga e'tiborimizni qaratamiz.

To xayoling ko'z dadur ko'z uyi go'yo Kabadur,

Kim turib atrofidin, kipriklarim aylar namoz.

Baytda quyidagi ma'nolar aks ettirilgan. Oshiq xayoli ko'zda, ko'z esa Kabadir. Oshiq xayolidagi ko'z bu mashuqa hamdir. Mashuqa esa Ollohdr. Yori- Ollohning uyi Kabada. Kabaning atrofidagi kipriklar esa namoz o'qiyotgan kishilardir. Ya'ni Olloh yo'lida etiqod etuvchi dindorlardir. Ko'z har yumilib ochilganda, kipriklarning holi namoz o'quvchi kishilarga o'xshatilgan. Chunki namozxonlar Kabaga sajda qilayotganlarida xuddi shunday bosh egib turadi. Kaba bu yerda ko'z bo'lishi bilan birga ko'ngil ramzini ham o'taydi. Shuningdek, kiprik va ko'z va ramziy ko'ngil (qalb) timsollari orqali diniy- tasavvufiy ma'nolar aks etmoqda.

Quyidagi baytda ham ko'z timsolining yuqorida zikr etilgan ma'nolarini kuzatish mumkin.

Qatl qilsa, yo'q ajab, din ahlini kofir ko'zing,

Muncha islom olibon, eldin qachon islomi bor.

Bu yerda ko'z timsolining kofirga o'xshashligini va bunday etiqodsiz xudosiz kishilar din ahliga ozor berishligini aytib o'tadi. Ko'zning bunchalar kofirlik qilishligi esa, har qanday musulmonni dindan chiqarishi haqida shoir bir qadar kuyunayotganini ko'rishimiz mumkin.

To qaroqchi ko'zlaring din yo'lini urdilar

Zuhd-u taqvo mulkidin kelmadi bir karvon.

Navoiy bu baytda ham diniy ma'nolarni yoritganini ko'rishimiz mumkin. Ko'z esa qaroqchiga qiyos qilinmoqda. Qaroqchi ko'zlar din yo'lidagi taqvodorlarni taladilar. Natijada din yo'lidan bironta ham karvon kelmay qoldi. Baytning botiniy ma'nosida esa, ko'zning qaroqchiligi tufayli

¹⁷ Дилором Салохий. Навоий насрида тасааввуф. – Самарқанд 1995, 6-бет.

zuhd-u taqvo ahli zohirangina din yo`lini tutgan hisoblandi. Aslida esa ilm-ma`rifatdan butunlay yiroqlashib ketdilar. Zero, ko`z bu yerda komilllik sari eltuvchi pir- solik bo`lishi lozim edi, ammo buning o`rniga u kofirlik yo`lini tanladi. Ya`ni din peshvolarining noraso fazilatlarini, shuningdek, muallif o`zining shayxlarga nisbatan norozi kayfiyatini yuqoridagi misralarda ochib beradi.

Shoir she`riyatidagi g`azallardan bir qanchasi diniy- ma`rifiy yo`lda yozilganligini ushbu bayt misolida ko`rishimiz mumkin:

Zamona mushkunga kofur qotti, ko`z ochg`il,
Ki chun ko`z ollidadur bo`lmas aylamak ig`moz.

Baytning majoziy ma`nosi quyidagicha izohlanadi: Zamona sochingni oqartirdi, ko`zingni och, nimaiki ko`z oldingda bo`lsa uni yashirib bo`lmaydi. Shuningdek, Navoiyning bu yerda yana bir tashbehi muhim: ey odam bolasi, deydi shoir kuyunib, mushkday qora soching kufurday oqardi. Endi ko`zingi och, ahvolingga bir qara, buni yashirib bo`lmaydi. Chunki umr oz qoldi, o`zingni tuzat, nafsni ketidan yugurishni yig`ishtir.

Ulug` gumanist shoirning bu g`azalida nasihat ruhi bilan birga tanqidiy ruh borligiga guvoh bo`lamiz. Chunki Navoiyning azaliy qayg`usi – insonni g`aflatdan uyg`otish, yomon xislat, intilishlardan xalos etishga chorlovchi da`vatnomasiday jaranglagan. Zero Fayozni olam – Tangri taoloning karami, fayzi eshiklari biz uchun ochiq, biz unga loyiq bo`lsak, musharraf bo`lamiz.

Oshkor aylab yuzin ko`zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko`ngul ko`zumni hayron aylagach.

Yashirin ravishda ko`nglum ko`zini hayron etgach, (Yor) yuzini ochib, ko`zini hayron etadi. (Yoki: yuzini ochib ko`zimni hayron etgach, yashirin ravishda ko`nglimni zabt etdi).

Ushbu g`azalda yor jamolining porlab ko`rinishini biz ko`z va yuzdan anglashilganiga guvoh bo`lamiz. Bundan esa oshiq ko`nglining iztirobi, sadoqati tasvirlangan. Oshiq ishq yo`lida qurbon bo`lsa-da maqsadidan

qaytmaydi, axir ishq yo`lida qurbon bo`lganlar allohning marhamatiga noyil bo`lib, jannatga kiradilar deydi.

Ko`ngulni ko`zlaring oldi, ne tong, iki bo`lmak,

Bir ahli dinni iki mast kofir etsa asir.¹⁸

Shoirning ushbu misralarida ko`ngil va ko`z timsoli orqali diniy qarashlariga guvoh bo`lishimiz mumkin. Bu yerda ko`z ko`ngilni o`z tariqati, dinidan chiqishiga majbur qiladi. Ya`ni ikta mast va yo`ldan uruvchi kofir ko`zlar din ahliga zulm qiladi. Ko`zning zulmkorligi, kofirligi sabab din ahlini (ko`ngil)ni asir olib, xudosizlantiradi, deydi.

Ko`zung fikri tan xilvatda notavon ko`nglim,

Riyoziyat aynidindur kunda bir bodom ila qone`.

Baytda ishlatilgan “notavon ko`ngul”, “riyoziyat ayni” va “bodom” – notinch, betoqat; bechora ko`ngul doimo ko`zning fikri yodi bilan yor vasliga mushtoq ko`ngul. Riyoziyat ayni – riyoziyat nazari, ishq tufayli chekilgan riyoziyat. Bodom esa qanoat ramzi hisoblanadi.¹⁹

Shoir asarlarida bodom o`z lug`aviy ma`nosida sermoy va lazzatli yoki achchiq, inson salomatligi uchun koni foyda bo`lgan tabiatning yana bir nemati sifatida ishlatiladi. Bodom – insoniyatning basirat ko`zi bilan dunyoga boqishini o`rgatadi. Shu boisdan, klassik she`riyatda ko`z va bodom timsollari o`zaro mushtarak va mutanosiblik xususiyatiga ega bo`lib, diniy-tasavvufiy talqinlarda qo`llanadi.

Ma`lumki, ko`z va uning qovog`i bodomga o`xshatiladi. Va shunday ko`chma ma`noda ishlatiladi. Navoiy she`riyatida bodom yuqorida qayd etilganlardan tashqari yana quyidagi ma`nolarda ham qo`llangan:

1.Yor (mahbuba)ning bodom shaklidagi ko`zi:

Ko`zlaring bodomi hajridin bo`lib jismim saqim,

Chiqti jonim, ey qora ko`z, hajring berdi bim.

2.Ko`z kosasi:

¹⁸Алишер Навоий МАТ 3 -том. Хазойин ул- маоний. Ғаройиб ус- сиғар. Т.: - 1988й. 133б.

¹⁹ Манзар Абдулхайров Жаҳон адабиёти. 2008. 8-сон. 199-201-бет.

Ravshan erur ko`zki tutar kom ila,

Go`shai mehrob iki bodom ila.

3.Inson ta`na a`zolaridan biri ko`z; diniy talqinga ko`ra Yusuf payg`ambarning ko`zlariga ham o`xshatiladi.

Xususan ushbu baytda qo`llangan talmeh san`ati ham ko`z timsolining diniy talqinini yuzaga chiqarishda ishtirok etishiga ko`p bora guvoh bo`lishimiz mumkin.

Guldin ul gulrux isin topqach, Navoiy ochti ko`z,

O`ylakim Yaqub ko`nglakdin mohi Kanon isi.²⁰

Keltirilgan baytda talmeh san`ati orqali Yusuf qissasiga ishora qiladi. Yusufning ko`ylagini hidlagan otasi – Yaqubning ko`zi ochilgandek, ya`ni hodisaning mohiyatga yetgandek, gulda gul yuzning – go`zallikning ramzini ko`rgan lirik qahramonning ham ko`zi ochiladi. Ya`ni asl mohiyat nimada ekanligini anglaydi. Navoiy gulni hidlagach, yori mahbubasining hidini tuydi va shundan so`ng ko`zini ochdi. Go`yoki gulning hidini tuygach, Navoiyning ko`ngil ko`zlari Yaqubnikidek ochildi.

Ko`rib o`tganimizdek, shoir she`riyatidagi namunalarda diniy- ma`rifiy ma`zmun ham yetakchi hisoblanadi. Unda shoirni nechog`lik Islom dini nazariyasini puxta egallaganiga guvoh bo`lamiz, balki shu asosda jamyatga targ`ib etganini bilishimiz mumkin.

Alisher Navoiy diniy ruhda tus bergan o`z she`riy namunalarida, asosan, tanqidiy ruh ustunlik qiladi. Bunda ulug` gumanist insonni ma`rifat va ma`naviyat ko`zini yoritishga da`vat qiladi.

²⁰ Адизова И. Жаҳон адабиёти. 2011. 2-сон. 191-бет.

2.2 Boshqa timsollar bilan birga qo'llanilishi. Avvalo ko`z va u bilan qo'llanib keladigan timsollar va obrazlarga to`xtalar ekanmiz, ular aks ettirayotgan badiiyatga ham to`xtalmog`imiz lozim. Chunki bu timsollar birgalikda qo'llanganda nafaqat Navoiy lirikasini, balki mumtoz adabiyotda qalam tebratgan ahli qalam sohiblar ijodidagi ayricha talqinlarni keltirib chiqargan. Bu hol, ayniqsa, Alisher Navoiy g`azallarida sevikli yor siymosi chizilgan. Xususan, uning quyidagi g`azalida timsollar tilsimida mahbuba jamolini ko`rishimiz mumkin.

Qoshi yosinmu deyin, ko`zi qarosinmu deyin,
Ko`nglima har birining dardu balosinmu deyin!?
Ko`zi qahrinmu deyin, kiprigi zahrinmu deyin,
Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin!?
Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin!?
Zulfi dominmu deyin, la`li kalominmu deyin,
Birining qaddin, yana birining adosinmu deyin!?
Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Movi(y) ko`nglak uzra gulrangi qabosinmu deyin!?
Charxi ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin!?
Ey Navoiy, dema qosh-u ko`zining vasfini ayt,
Qoshi yosinmu deyin, ko`zi qarosinmu deyin!?

Alisher Navoiyning turli janrlarda yozilgan necha minglab baytlarida go`zallarning tana a`zolari va qaddi-qomatimadh etilgan. Xususan ushbu misralarda quyidagilarga guvoh bo`lishimiz mumkin.

Ko`z birla qoshing yaxshi, qabog`ing yaxshi,
Yuz birla so`zing yaxshi, dudog`ing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqog`ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin oyog`ing yaxshi.

Bunday misralarni o`qish juda yoqimli va ular: ko`z, qosh, qaboq, yuz, xat, xol go`zalligidan boshqa bir narsani xayolga keltirishga unchalik imkon bermaydi. Biroq ramz va timsol darajasiga ko`tarilgan ushbu “unsur” larda bir- birini inkor etmaydigan ikki maqsad aks ettirilgan.

Ikkinchidan, shu go`zallik va nafosatda yorning tengsizligi ayni paytda ilohiy sifatlar, qudsiy fayzlarga bir mazhar ekanligini kashf etishdir. Shuning uchun bunday maqsad insonga qarash va munosabatni tubdan o`zgartiradi, ya`ni insoniylik mohiyati, ilohiylik mohiyatidan ayni emasligini, ilohiy sifatlarni zohir etish faqat insonga amo qilinganini anglashga keng yo`l ochadi. Bunda bashar manfaatlariga zid keadigan, uni cheklaydigan hech qanday mantiq yo`q. aksincha, ko`z, soch, qosh, yuz kabi tana a`zolari ifodalagan ichki ma`nolardan ogoh bo`lish, yor go`zalligiga ishonchni mustahkamlabgina qolmasdan tasavvurda yangi fikriy harakat va imkoniyatlar hosil qiladi.

Xususan, Navoiyning Lutfiyga juda ma`qul tushgan ushbu g`azali haqiqatan juda kuchli, yorqin va ta`sirli o`xshatish va mushohadalarga boy.

Orazin yopqach ko`zimdin sochilur har lahza yosh,

Buylakim paydo bo`lur, yulduz nihon bo`lg`ach quyosh.

Qut bir bodom-u erim go`shayi mehrob edi,

G`orati din etti nogah bir balolig` ko`z-u qosh.²¹

Ma`shuqa yuzini yopganidan so`ng oshiqning ko`zidan har lahzada yosh to`kilishini quyosh nihon bo`lgach, (yo`qolgach, botgach) yulduzlarning paydo bo`lishiga o`xshatish haqiqatan katta poetik topilmadir. Bu yerda yoshning yulduzga o`xshashidan tashqari, qorong`ulik tushuvi (yor yuzini yopishidan sevguvchi yuragiga tushgan g`ashlik) ham, osmonda yulduzning ko`pligi va sevguvchi ko`z yoshining ko`pligidan ham o`z-o`zidan, so`zsiz ifoda etilgan, ammo qattiq ta`sir etuvchi obrazlardandir.

Bu matlanining (birinchi bayti)gina emas, har bir bayti ana shunday chuqur mushohada va yorqin ifodalar bilan to`la. Ko`rinib turibdiki, keyingi

²¹ И. Султон. Навоийнинг қалб дафтари, - Т.: Адабиёт ва санъат. 1973 58-бет.

baytda shoir sevgilisini qoshlarini masjidning mehrobiga va ko`zlarini bodomga o`xshatgan: go`zalning bir baloli ko`zlari va qoshlari uni dindand chiqarishga (“g`orati din etishga”) qodir.

Alisher Navoiyning butun g`azalllaridan o`tadigan siymo – yor. Uning go`zalligini naqadar jozibador ekanligini ko`rsatish uchun shoir- o`z sinfiy tushunchasiga ko`ra – qimmatli, yuksak nozik ashyo sifatida har xil metaforalar o`xshatishlar yaratdi.

Yor labi – g`unchaga, may, la`l, yoqut, shirinlik kabilarga o`xshatildi. Bunda ko`proq porloqlik, shirinlik oldinga suriladi. Bo`y-qomat traditsiyaga muvofiq, har vaqt sarvgaga o`xshatiladi. Kiprik – zahrolud, zahmlovchi, nishtar, o`qqa qiyoslanadi. Og`iz uchun xarakterli metafora – g`unchadir. Ko`z – nargis, fatton, battol, ohu, jallod eng muhimi qora, yirik, qiyg`och bo`lishi kerak. Ko`z yoshlari seli – to`fon, qonli daryo, yomg`ir, shom va parvonaga o`xshatilgan.

Ko`rib o`tganimizdek, Alisher Navoiy she`riyatida badiiy timsollar turli xil badiiy axloqiy – falsafiy, va tasavvufiy o`rinlarda qo`llanganini ko`rishimiz mumkin.²²

Muallif ijodida ko`z timsoliga zimdan nazar tashlaganimizda biz bir qancha g`azallarda bu timsolning ba`zan radif, qofiya o`rnida, ba`zan esa ma`no-mavzuyi jihatdan ko`zga bag`ishlanganini ko`ramiz.

Ko`zu ko`nglum bahru barsayr ettilar yor istabon,
Bu safarda toptilar yag`mo ko`ngul, g`arqob ko`z.
Ko`zu ko`nglumdin biri kuyub, birisin buzdi sayl,
Yo`qsa, nevchun bo`ldi nopaydo ko`ngul, noyob ko`z.
Deb emish hajrimda mendek, ko`zu ko`nglin asrasin,
Voykim, yo`qtur manga xoro ko`ngul, qassob ko`z.
Vah, ne kun bo`lg`ayki, yetkay vaslig`a ko`zu ko`ngul,
Tortibon faryodu vovaylo ko`ngul, yig`lab ko`z.
Ko`rmayin deb ko`rdi ko`z, ko`rgach ko`ngul qildi havo,

²² Ойбек. Навоий ғазалиёти. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Т.:1961 йил.2-сон, 7-б.

Bo`ldi zor etkan meni rasvo ko`ngul, qallob ko`z.
Do`st ko`zla, xasmdin uzgil ko`ngulkim, tushsa ish,
Bermasu olmas emish a`do ko`ngul, ahbob ko`z.
Ey Navoiy, go`yiyokim yor mehmon bo`lg`usi
Kim, murattab²³ aylamish ma`vo ko`ngul, avbob ko`z.²⁴

Ko`rinib turibdiki, ko`z radif o`rnida ko`ngul timsoli bilan birgalikda qo`llangan. Birinchi baytda ko`z va ko`ngul qirg`oq va dengizlarda orni toppish uchun sayrga chiqadilar. Bu sayr so`ngida ko`z dengizga cho`kib ketadi. Ko`ngil esa vayron bo`ladi. Ikkinchi baytda yanada vaziyat keskin tus olganini ko`ramiz. Bu safarda oshiqning ko`ngli kuyib kulga aylanadi, ko`zidagi yoshlar esa sel bo`lib yog`iladi. Shuning natijasida ko`z va ko`ngil yo`qolib qoladi. Shunda ishq aytarmishki, har kim mening hajrimda kuyar bo`lsa, ko`z va ko`nglini ehtiyot qilsin. Agar asramasa, ko`ngil xor bo`ladi, hatto qassob ko`zning ham holi voy bo`ladi.

Oshiq qachonki, yorning vasliga yetishadi. Bunda ko`ngul tinimsiz ohu faryod ko`tarib vovaylo qilsa, shuningdek, ko`z tinimsiz shashqator yoshlarini oqizsagina tilagiga yetishishi mumkinligini muallif ta`kidlab o`tadi.

Ul yorni ko`rmaslikka, unga qiyo boqaslikka ko`z shuncha urinsa ham iloji bo`lmadi. Ko`ngil ham bu ishda ko`zning tarafdori edi. Lekin ko`z o`z so`zida tura olmay, firib berdi. Natijada ko`ngul xor-u rasvo bo`ldi, ko`z esa qallobga aylandi.

Shoir oltinchi baytda o`zining hayotiga doir fikrlarni aytganini ko`rishimiz mumkin. Shoir aytadiki: do`st tutinishni o`yla, dushmanlikdan ko`ngil uz. Agar shunday qilmasang, ko`zing do`stlik qilib tursada, ko`ngil dushmanlik qiladi. Ya`ni yaqiningdagi insonlar o`zlarini do`st qilib ko`rsatishsada, ko`nglida dushmanlik o`ti bo`lishi mumkinligini aytadi.

²³ 19.Навоий асарлари учун қисқача луғат. –Т.: Фан, 1993. 182-бет.

²⁴ Алишер Навоий МАТ 3 –том, - Т.: 1988. 184-бет.

Shoir maqtada traditsion fikrlarini ilgari suradi. Agar sevgili, yor mehmon bo`lib kelmoqchi bo`lsa, avvalo, unga ko`ngul va ko`zdan joy berilishi kerak. Shundagina mahbuba oshiqning bir umrlik mehmoniga aylanadi.

Yani, Ko`ngul yorga shaydo bo`lganu, Ko`z uyqusi nimaligini unutgan. U yor jamolini boshqa ko`ra olmasligini bilib shu ahvolga tushgan. Lekin ko`ngulni yorga shaydo qilgan asosiy aybdor Ko`zdir. U birinchi bo`lib yor xusnini tomosho qilgan.

Jismida savdo g`olib bo`lgab kishining ko`zlari qizarib, qontalash bo`lib turadi. Bu hol qonda savdoning ortib ketishidandir. Ko`zning xunob bo`lishiga esa majnun Ko`ngulning har savdo zohir kishi boisdir.

Ikkinchi baytda tashxis saan`ati aks etgan. Yor jamolini istab dengiz sayriga chiqqan Ko`zu Ko`ngul yorini topa olmay g`am topdi. Ko`z esa, bu ko`rgulikdan o`z ko`zyoshlariga o`zi g`arq bo`ldi.

Uchinchi baytda tashxis yanada go`zalroq nomoyon bo`ladi. Ko`gul yor firoqida o`rtanaverib, o`z ishqining o`tida o`zi kuyib kul bo`ladi. Ko`z esa hijron azobida to`kkan yoshlaridan hosil bo`lgan sel tufayli nobud bo`ladi. Shu tariqa ikkalasi ham noyobu nopaydodur.

Yor: “Agar meni sog`insa, meing o`rnimda Ko`zim va Ko`nglimni asrasin”, degan emish. Bechora oshiq ne qilsinki, bundayin tikanzor Ko`ngul va qotil Ko`zni hech qachon asragan emas.

Agar bir kun kelib zor Ko`zimu mahjur Ko`nglim yor vasliga erishsa, bu sharafni Ko`nglim sfaryodu ohu boy bilan, Ko`zim o`z yoshlari bilan qarshi oladi.

Navbatdagi baytda tardi aks san`ati voqe` bo`lgan. Albatta, Ko`ngulning berqaror bo`lishiga Ko`z sababchidir. Chunki, u “qaramayman!”, deb bergan va`dasida turmay, yana yor xusniga boqdi. Shundan so`ng Ko`ngul havolandi. Ko`ngulni xoru rasvo qilgan Ko`z – yolg`onchi, qallobdir. Keyingi bayt chuqur falsafiy va ijtimoiy ma`no kasb etgan: “Ey

oshiq! Bu dunyo molidan ko`nglingni uz va do'st ko`zla! Agar boshingga ish tushsa, ko`ngling vafo qilmaydi, ko`zing esa do'stlar qatorida bo'lmaydi".

Nihoyat maqta: Ey Navoiy, yor mehmon bo'ladiganga o'xshaydi. Ko`ngling o'yini, ko`zing eshiklarini tartibga keltiribdi.

G`azaldagi takroriy qofiya va radiflar g`oya-mazmunni yorinroq ifodalashga xizmat qilib, "o" harfidan hosil qilingan harfiy ishtiyoq san`ati esa she`rning ravonligi, jarangiga aur`at bag`ishlagan.

Shu o`rinda yana bir narsa kishi e`tiborini tortadi. Nega shoir "ko`z va ko`sh", "ko`ngul va yuz" emas, baki, aynan "ko`ngul va ko`z"ni g`azalga radif qilib oldi? Chunki, ishq makon tutgan yer-Ko`nguldir. Ko`z esa, yor chehrasini ilk bor ko`rib, shuncha "firoqu rashku hajru oh ila dard"ni bo`shlab keluvchi asosiy ayibdordir. Oshiq o`z ko`zlaridan ranj chekadi. Lekina, yorning ko`zlari-chi? Axir, oshiq ko`ngulini asiru muhtalo etgan shu ko`zlarku! Ko`zga Ollohning nazari tushgan, deydilar. Shu sababdan ham ko`z – aziz, sevimli, dilbardir. Bechora oshiqning nazari ham eng avvalo yorning jodu ko`zlariga tushgan va ko`ngul umrbod ishq dardiga muhtalo bo`lgan. Bu haqda Navoiyning boshqa bir g`azalida shunday bayt bor:

Ko`ngulni ko`zlaring oldi, ne tong iki bo`lmak

Bir ahli dinni iki mast kofir esa asir?

-Ko`nglim sening mastona ko`zlaringga maftun bo`lib qoldi. Bir dindor muslimni ikki mast dinsiz ikki qaytalab asir etsa, buning hech ajablanarli yeri yo`q. Sening ikkita mastu behud ko`zlaring zulmatiga mening bitta mo`min ko`nglimning kuchi yetarmidi?

Yoki yana bir bayt:

Sayd o`ldi ko`ngul ko`zlaringga, vah, qutulurmu

Bir kushki aning qasdida bo`lg`ay iki sayyod?

-Bir qushni tutmoq qasdida bo`lgan ikki ovchi kabi ikki ko`zing ko`nglimga nazar qildi va ko`nglim ko`zlaringning asiri bo`lib qoldi.

Yuqorida keltirilgan batlarda ko`z timsoli badiiyati yuqori o`rinda turadi. Natijada Navoiy she`riyatining bezakli va serjilo baytlari uning shaxsiyatini nihoyatda nozik did sohibi ekanligini ko`rsatib turadi. Shoirning “Xazoyin ul- maoniy” devonida bunday g`azallar ko`plab uchraydi. Ya`ni ular yo radif, qofiya o`rnida, yoki matladan maqtagacha “ko`z”ning xususiyatlariga ta`rif- tavsif beriladi. Inchunun “G`aroyib us-sig`ar” dagi 388-g`azalda xuddi shu holat kuzatiladi.

Uyg`onib subh uyqusidin mehr sham`in tor qil,
Ko`z ochib har go`shadin bir fitnani bedor qil!
Ko`zni afsunsoz etib, jonbaxsh labdin nuqta ayt,
Somiriy sihrin, Masiho mo`jizin izhor qil!
Ko`z to`la uyqu og`irliq solmoq uchun qo`l ochib,
Ul muhol ummid birla bizni minnatdor qil!
Sep qora yer uzra xob olud ko`zga su urub,
Ko`z yetarcha yerni ul su birla nargiszor qil!
Uyqudin ul gulni ko`rmak gar murodim bo`lmasa,
Ko`zuma, yo rabki, har bir kiprigin bir xor qil!
Do`st matlub ersa g`aflat uyqusidin ko`z ochib
Uchmoq ummidi, tomug` biymidin istig`for qil!
Ey Navoiy, tushta ul oy dedikim, vasl istama!
Aks erur tush, sen talabni ulcha mumkin bor qil!²⁵

Har tong quyosh chiqib, olamga nur tarata boshlagach, butun borliq uyg`onib ko`zini ochadi. Va har go`shadan fitna sochuvchi ko`zlar uyg`onib bedor bo`ladi. Bunda Iso nafasli lablar va afsunsoz ko`zlar suhbatga kirishadilar va o`z mo`jizalarini ko`rsata boshlaydilar. Muallif ushbu baytda talmeh san`atidan unumli foydalangan holda ko`z va labning mumtoz she`riyatdagi beqiyos topilmalarini keltirib o`tadi.

²⁵ Алишер Навоий МАТ 3 - том.- Т.: Фан, 1988. 310-бет.

Uchinchi baytda esa, uyqudan uygʻonayotgan kishining uyqusi shirinlik qilayotganini koʻrishimiz mumkin. Shunda bevosita qoʻllarimiz yordamga kelib, bizni bu qiyin ishimizni osonlashtiradi. Va qoʻllarimiz bilan koʻzimizdan uyquni haydaymiz.

Toʻrtinchi baytda koʻzni nargis guliga qiyos etilayotganini koʻrishimiz mumkin. Uyqusiragan koʻzni suv bilan yuvib uygʻot. Koʻzlarni suv bilan yuvgandan soʻng, qora yerga suv sep. Va bu yumaloq suv donachalari xuddi suvda nargis guli (oʻsganidek) koʻrinishda joylashsin demoqchi.

Beshinchi baytda agar mening uyqum shirinlik qilib ul gul yorimni koʻrmasam, yo rabbim mening koʻzlarimga har bir kipriklarim tikan boʻlib sanchilsin. Keyingi baytda shoirning kuchli daʼvatiga duch kelamiz. Doʻstlar sizlardan bir narsani iltimos qilaman: bu gʻaflat uyqusidan koʻzlaringizni ochinglar va tavba tazarruni kanda qilmanglar. Zero, umr oz qoldi, uni behuda oʻtkazmaslikka kirishinglar deya daʼvat qiladi. Sheʼrning maqtasida esa fikr oʻzgacha aks etadi.

Koʻz va kiprik timsolining birga qoʻllanilishi.

Bahri ashkim ichrakim, topmas zarar koʻz mardumi

Goʻyiyo kiprik nayistonidin, aning soli bor.

Koʻz mardumi koʻz yoshlar dengizida suzib hech qanday zarar koʻrmadi. Kipriklar yigʻilgan holda bir boʻlib, suvda suzgich, (sol)ni hosil qildilar. Shu sabab koʻz qorachigʻi yoshlar dengizida bemalol suza oldilar. Bunga esa kipriklar yordam berdi.

Midod etgan qarogʻimni, qilibon kipriging xoma

Koʻzimning pardasidin, oʻzga qogʻozga savod etma.

Xususan, ushbu misralarda koʻz mardumi siyohga oʻxshatilgan kiprik esa, qalamga. Shu vajhdan oshiq mashuqasiga -“mening koʻzlarim qorasini siyoh etgin. Va kipriklaring qalami ila koʻzim pardasiga yoz ” deya zorlanadi.

Kiprik ermaskim, Navoiy, o'tgan ul chobuk debon,

Ko'z qarosuyig'a bog'laptur qamishlar birla pul.

Oshiq – Navoiyning ko'zi bunda buloqqqa o'xshatiladi. Buloqdan chiqib oqadigan suvlarga esa qora suv deyiladi. O'ynoqi mahbubaning bu suvdan qiynalmasdan o'tishi uchun oshiq o'zining qamishga o'xshagan kipriklaridan ko'prik yasagan. Tasvirda, shubhasiz, shartlilik va romantika bo'lsa ham, lekin bu o'xshatish naqadar hayotiy va orginal.²⁶

Mujgon safining qaro balosi,

Ko'zlar uzra soyaning qarosi.

Ma'lumki, kiprik timsoli mumtoz va Navoiy she'riyatida bir qancha tashbeh va tanosublarga ega. Shunday o'xshatishlardan birini yuqorida keltirilgan baytda kuzatishimiz mumkin. Mujgon ya'ni kiprikning saf tortib, tizilib turishi sabab ko'zning ustiga qora soya solayotganini ta'kidlab o'tadi.

Ko'z va qosh timsollarining birga qo'llanilishi.

Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay.

Otki o'trusiga aning ko'z tutay,

Necha ko'rgach, o'zga mahvashlar qoshin

Yangi oy ko'rgan kishidek ko'z tutay.

She'ning birinchi baytida Navoiy mashuqaning qoshini yoyga qiyoslaydi. Va aytadiki, agar sen qoshlaring bilan qancha o'qlarni otsang, men senga ko'zimni nishon qilay. Ikkinchi baytda esa oshiq qancha oy yuzlilarning qoshini ko'rgan bo'lsa-da, o'z mashuqasining qoshiga xuddiki, osmonda yangi oy chiqqandaki kabi xursand bo'lgan kishilardek, ko'z tutishni, qarashni xohlaydi.

O'sma birla qoshni ul mahvashki rangin aylamish,

Ko'zi jallodi qilichiga yashil qin aylamish.

Navoiyning bu baytida yorning qoshlariga o'sma qo'yib rangin aylagani, qoshni ranglaganligi birinchi misrada tasvirlanadi. G'zalning

²⁶ Хайитметов А. Навоий лирикаси. Т.: 1961 –й, 215-216-б.

ikkinchi misrasida esa fikr davo ettirilib, shoir yorning ko'zlarini jallodga qiyos etadi. Bu baytning umumiy nazmuni quyidagicha:

Navoiy o'sma bilan rangli qilingan yor qoshini, ya'ni yashil qoshni qilich deb tasvirlaydi. Qoshga qo'yilgan o'sma qilichga qin va yorning ko'zi jaloddir. Bu yerda juda chiroyli o'xshatishdan foydalanadi. Yori ma'shuqaning ko'zi jon olguvchi – jallod, uning qilichi – qosh, qilicha qin, qoshga qo'yilgan o'smadir.²⁷

Ko'z va ko'ngil timsollarining bira qo'llanilishi

O'ynay- o'ynay bog'ladi uyqumni fusundin

To g'amzasi ul nargisi jodu bila o'ynar.

Tong yo'qki, ko'zung bo'lsa ko'ngul birla muloib,

Majnung'a ajab yo'q, agar ohu bila o'ynar.

Baytning qisqacha mazmuni shunday: ul sho'x g'amza bilan jodu ko'zlarini o'ynatib, ko'nglumni afsun etib uyquga soldi. Bunda ajab emaski, ko'ngul ko'zing bilan o'ynab, dilxushlik qilsa, zero Majnunning sahroda ohu bilan o'ynagani ajablanarli emas.

Ko'ngil ko'zgusini o'ynay-o'ynay mahbuba oshiqni jodu qilib uxlatadi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, deydi shoir, axir Laylining nargis ko'zi sehri Majnunni shunday avradiki, bechora oshiq sahroga chiqib ketib, ohular bilan o'ynab yashaydigan bo'ldi. Bunda mahbubaning ko'zi bilan ohuning ko'zini qiyos etilayotganini ko'ramiz.

Shoir mahbubaning go'zal yuzi, nargis ko'zi bilan birga chiroyli xolini ham tavsif etib yozadi: qora zulfing o'rami ichidagi xoling go'yo chambar (aylanma halqa) ichidagi qora tanli lo'luga o'xshaydi deya ta'rif etadi. Demak, birinchi baytdagi "sho'x hindu bacha" tashbehi ikkinchi baytdagi ko'zgu bilan o'ynayotgan go'dak, uchinchi baytda jodugar, nargis ko'z, to'rtinchi baytda ohu bilan o'ynayotgan Majnun, beshinchi baytda chambar ichidagi "bozigar lo'li" tashbehlari bilan ulanib, yaxlit bir qatorni tashkil

²⁷ Ойбек. Навоий ғазалиёти. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Т.:1961 йил.2-сон, 5-б.

etadi. Va mahbuba qora zulfining ko`ngilni band etuvchi badiiy sharhini beradi.

Natijada g`azalda muhabbatning tunganmas tuyg`ulari ummonidan bir kechinma tarannum etilib, ko`ngulga xushnudlik baxsh etadi. Go`zal chehralarning nozik tasvirlari cheksizligi bundan quvvat topadigan ishqning qudrati namoyon bo`ladi.

Sirri ishqimni ko`ngul, ko`z birla fosh etmak ne tong,

Qalbi tardomani chun men sohibasror istadim.

Shoir aytmoqchiki, ishq sirini ko`ngul, ko`z orqali fosh etsa ajab emas, chunki men (nodon) buzuq qalbni sirlarimga ega etib qo`yibman deya oshiq qalbidagi iztiroblarni ifoda etadi. Bunda muallif ko`z, ko`ngil, qalb timsollarini qiyoslab oshiq holatidagi bir jihatni tasvirlab bergan. Ya`ni oshiq ishqni qancha yashirmasin, u oshkor bo`ladi, chunki ko`z bilan qalbga ishonib bo`lmaydi. Ko`z ko`rganini qalbga yetkazadi, qalb esa o`zgarib turuvchi, beqaror va “buzuqi”. Bunda arab tilidagi “qalb” so`zing turfa ma`nolarni bildirishiga ishora bor: qalbning bir ma`nosi yurak bo`lsa, yana bir ma`nosi – o`zgarib turish (qallob), yana bir ma`nosi beqarorlik, ishonib bo`lmaydigan narsa. Shuning uchun uni “buzuqi” ham deydilar. Shu sabab ko`z va qalbni sirlarga posbon qilib qo`ysa, oshiqni ne kuylarga soladi.²⁸ Navoiy ko`z, ko`ngil, qalb timsollarini, shuningdek, insondagi xususiyatlarning xilma-xilligi, bevafoliklarini ta`kidlab, o`z yolg`izligini bayon etishga imkon topadi.

Ko`z va soch (zulf) timsollari badiiyati

Zulfi siymin jisming af`i ganji Qorun ustina,

Ganj uza sohir ko`zing af`ig`a afsun ustina.²⁹

²⁸ Комилов Н Жаҳон адабиёти. 2012. 6-сон. 3-6-бет.

²⁹ Алишер Навоий. Навоий. Қаро кўзим. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. 757- бет.

Musaddasning birinchi misrasi ma'shuqa zulfi (soch) haqida. Bunda tasvir obyekti (soch) hisoblanadi. Navoiy zulf terminini jism bilan yonmayon qo'llaydi. Shoir bu o'rinda kumushtan ustidagi zulfni Qorun ganji ustida gajak bo'lib yotgan ilon (af'i)ga qiyoslaydi. Musaddasning ikkinchi misrasida sehrli ko'zlar tasviri berilgan. Navoiy yozadi: ganj (jamol) ustidagi sehrli ko'zlar ganj (xazina) ustidagi ilon (af'i)ni sehrlamoqda. Deya ko'zni yana bir bora sehgarga o'xshatadi. Va yuzdagi sochning gajak bo'lib, ko'rinishini ilonga qiyos etadi.

Ko'z va lab timsollari badiiyati.

Xususan shoir she'riyatida lab timsoli ham ko'z kabi keng ko'lamda qo'llanilishini budan oldingi bitiruv malakaviy ishlari va ilmiy ishlardan ham bilishimiz mumkin. Shuningdek, lab timsolining badiiyati ham chuqur falsafalarga boy hisoblanadi. Klassik she'riyatda keng tasvir maydoniga ega bo'lgan tasavvufiy baytlarni ham tashkil etadi. Ko'z kabi ishq ilohiy va ishq majoziy ma'noda qo'llanadi.

Ikki ko'zingu labing g'amidin'

Men xasta o'lib-o'lib tirildim.

Mumtoz adabiyotimizda ko'zning tashbehi aksariyat qotil, lab esa obi hayot manbai sifatida tilga olinadi. Navoiy ana shu ancha siyqalanib qolgan tashbehlardan quyidagicha sahli mumtane yaratgan. Baytda "o'lib-o'lib" so'zining ikki bor takrorlanishidan har ko'zing uchun bir marta jon berdim. Ammo labing xayoli meni tiriltirdi, degan ma'no chiqadi.³⁰

Ko'rib o'tganimzdek, ko'z timsoli bilan birga qo'llanib kelayotgan timsollar bir qancha badiiy san'atlarni hosil etadi. Xuddi shunday ko'z ham boshqa timsollar va obrazlar bilan uyg'unlikda ularning tasvir imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ko'z har bir timsol bilan alohida-alohida badiiy va ilmiy jihatlarni yoritib keladi.

³⁰ Дилором Салохий. Навоий назмиёти. – Самарқанд: Зарафшон, 2013. 71-72-бет.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "ko'z timsoli" she'ruyatda nafaqat yuqoridagi boblarda keltirilgan ma'nolarni anglatadi. Balki insondagi eng oily sifatlarni ham o'zida aks ettirganiga guvoh bo'ldik. Bu fikrlarga qo'shimcha qilgan holda "ko'z" timsoli obraz darajasiga ko'tarilganiga guvoh bo'ldik. Chunki inson yuzidagi eng katta ma'noni ko'z tashkil etadi. Biz inson fikrining nechog'lik samimiy yoki nosamimiy qirralari ko'z orqali namoyon etadi.

Birgina ko'z qarashning o'zidayoq olam- olam ma'no- mazmun yotadi. Ana shu ko'z nigohlarning turlanishiga qarab, tafakkurimizda fikrlar jamlanib, hatti-harakatimizga ko'chadi. Bunga turmush-tarzimizda birmuncha guvoh bo'lamiz. Har kishi o'z nigohlaridan kundalik turmushda unumli foydalanishni bilsa, kishilararo muomila layoqatida ta'sir eta olish imkoniyati kengaya boradi.

Ulug' shoir Alisher Navoiy g'azallari undagi bitmas-tuganmas ma'no- mazmun va yuzlab timsollar haqida ko'plab ishlar olib borilgani ma'lum. Lekin bu ulug' siymo she'riyatining ochilmagan qirralari ko'pligi bois har doim o'z tadqiqotlarini yangi-yangi talqinlari bilan jalb etib boraveradi.

Biz bu malakaviy bitiruv ishida "Alisher Navoiy she'riyatida ko'z timsoli talqini"ga badiiy-estetik, tasavvufiy-falsafiy, diniy, o'z va ko'chma ma'noda, shuningdek, boshqa timsollar bilan birga qo'llana olishidagi badiiyati masalalariga birmuncha to'xtalib o'tdik. Bunda klassik she'riyatda badiiy tasvir vositalarining turlicha talqinlari mavjud bo'lib, voqea va zamon o'tishi bilan bu talqinlar takomillashib, chuqurlashib borgan.

Ushbu badiiy timsollardan ma'shuqaning asosan yuz a'zolari turli narsa - predmetlarga o'xshatilgan. Ma'na shu o'xshatishlar Alisher Navoiy ijodigacha ham ko'plab uchraydi. Shu boisdan, Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy she'riyati janrlarida "ko'z" timsolining qo'llanilish darajasiga ham to'xtaldik.

Va natijada har bir ijodkorda bu talqin turli badiiy qirralarni namoyon etganini bilib oldik.

Shuningdek, Navoiy gʻazaliyotida koʻz timsoli tufayli boshqa badiiy timsollarning rang-barang va turli xil badiiy- axloqiy, diniy, tasavvufiy oʻrinlarda qoʻllanishini koʻrdik.

– koʻz timsoli bu ananaviy timsollardan biri hisoblanadi. Va bu timsol ananaviy ravishda fors-tojik, turkiy sheʼriyatida ijod etuvchi shorlar ijodida koʻplab qoʻllangan. Masalan, Xorazmiy, Atoiy, Lutfiyva boshqa shoirlarning gʻazallarida turli maʼno-mazmunda qoʻllagan.

Alisher Navoiy ijodida esa benihoya keng koʻlamda tasvir obyektiga ega boʻlgan. Ayniqsa, uning “Xazoyin ul-maoniy” sheʼriyat kulliyotida koʻplab koʻz va boshqa timsollar tasviriga oid baytlarni kuzatib oʻtdik. Kuzatuv chogʻida esa shu narsaga amin boʻldikki, koʻz boshqa obraz va badiiy timsollarga qaraganda koʻproq qoʻllangan ekan. Bu esa uning qolgan timsollarga qaraganda tasvir koʻlamining kegnligini koʻrsatadi.

Birgina koʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi orqali diniy, tasavvufiy talqinlarida kelgan baytlar soni 2000dan ziyod baytlarni tashkil etar ekan. Yana bir boshqa maʼnolar orqali ham biz koʻz timsolining tasvir oyektiga oid mazmunni kuzatishimiz mumkin. Yaʼni koʻz yoshi –ashkbon, sirishk va koʻz jqorachugʻi – mardum, mardumak ham yuqorida berilgan boblar tasviridagi kabi koʻz timsolini aks ettiradi.

Xullas, kuzatishlarimiz jarayonida “Xazoyin ul maʼoniy”da 2000dan ortiq baytlarda koʻz timsoli turli xil maʼno - mazmunda qoʻllangan.

– Alisher Navoiy ijodidagi gʻazallarda koʻz timsoli ikki xil maʼnoda qoʻllangan: oʻz maʼnosida va (majoziy) koʻchma maʼnoda.

– Oʻz maʼnosida: koʻrmoq, nazar tashlamoq, qaramoq, qorachugʻ, fors-tojikchada “chashm” “nargis” istilohida kuzatamiz. Turkiy sheʼriyatda esa, bir qator leksik sinonimiyani tashkil etadi. Bunda “koʻz” timsolining oʻxshashlikka asoslanganiga guvohi boʻlamiz. Masalan:

”ko`z” jodu, qayiq, qiymoch, sadaf, baliq, ohu, (kiyik), battol, jon oluvchi, baloangez kabi ma`nolarda qo`llaniladi.

– tasavvufiy ma`noda barchani fitna-yu firib bilan aldayotgan ko`z-dunyo bo`lishi ham dunyo nafosati bilan boqqan Mutloq ruh chashmasi bo`lishi ham, yuz – ko`zidan nur yog`ilib turgan komil inson bo`lishi ham mumkin. Har holda mashuq ko`zi fitnakor, aldamchi, ekani aniq. U barchani oshufta etadi. Ishq aslida ana shu maftunkor yuz- ko`zga qarashdan boshlanadi. O`sha ko`zlarki, bechora oshiqni bir lahza tinch qo`ymaydi. Xo`sh agar yuz va ko`z ilohiy sifat tajalliyot belgisi bo`lsa, nega u maftunkor va aldamchi? Gap shundaki, tariqatda, mashuq ko`zi basirat darajasi, ya`ni qalb ko`zining o`tkirligi, ayni vaqtda u oshiqni imtihon etuvchi, sinovdan o`tkazuvchi-kuch. Ilohiy jamol turli ko`rinishlarda jilolanib, qalbgga yo`l izlaydi. Ko`z - jilo-mavj, tovlanish, sehru-jodu maftunkorlikdir. Ko`z shu bilan birgalikda g`aybning manbai, sir-u asror yuz va fitnakor ko`zlardan bekinish ilohdan yuz o`girish bilan barobardir. Yaxshisi ishq olovida kuyish nasib etsin, jodu ko`zlardan ayirmasin chashmasidir.

– Navoiy diniy ruhda tus bergan o`z she`riy namunalarida, asosan, tanqidiy ruh ustunlik qiladi. Bunda ulug` gumanist insonni ma`rifat va ma`naviyat ko`zini yoritishga da`vat qiladi. Shuningdek, Ollohni yod etgan holda insonning ko`zini tasvir etadi.

Ko`rib o`tganimizdek, ko`z timsoli shoir she`riyati badiiyatida bir qancha samarali o`rinlarda va sermazmun mavzularda qo`llanganiga guvohi bo`ldik. Shu bois, ko`z Navoiy lirikasida eng ko`p tasvir taraqqiyotiga ega bo`lgan timsol bo`lishi bilan birgalikda uningdek hech kim bu timsolni talqin eta olgan emas. U o`z davrida ko`zning ma`shuqa go`zalligini ta`riflashda nechog`liq ahamiyatli ekanini o`zining baytlari orqali ochib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Каримов И. Адолатли жамият сари. – Т.: Ўзбекистон. 1998.
2. Каримов И. Истиқлол ва маънавият. Т.: Ўзбекистон. 1994.
3. Каримов И. Юксак маънавият йенгилмас куч. – Т.: Манавият, 2009.
4. Каримов И. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида. – Т.: Ўзбекистон, 1977.
5. Исҳоқов. Навоий поетикаси.
6. Стеблева И. В. Семантика газелий Бабура. Масква, 1982.
7. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: Ўзфанакаднaшр, 1961.
8. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Тамаддун, 2012.
9. Комилов Н. Тасаввуф. Т.: Моварауннахир – Ўзбекистон, 2009.
10. Жалолиддин Румий. Қалб кўзингни оч. – Т.: Санно-стандарт, 2010.
11. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро.: Бухоро, 1994.
12. Дилором Салохий. Навоий насрида тасаввуф. – Самарқанд, 1995.
13. Дилором Салохий. Навоий назмиёти. – Самарқанд.: Зарафшон, 2013.
14. Алишер Навоий МАТ 3 -том. Ҳазойин ул- маоний. – Т.: Фан, 1988.
15. Алишер Навоий МАТ 4 -том. Ҳазойин ул- маоний. – Т.: Фан, 1990.
16. Алишер Навоий МАТ 5 -том. Ҳазойин ул- маоний. – Т.: Фан, 1990.
17. Алишер Навоий МАТ 6 -том. Ҳазойин ул- маоний. – Т.: Фан, 1990.
18. Ойбек. Навоий ғазалиёти. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Т.: 1961.
19. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Т.: Фан, 1993.
20. Афоқова Н. Мутолаа – Т.: Академнашр, 2011.
21. Алишер Навоий. Навоий. Қаро кўзим. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.